

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

T A R I X F A K U L T E T I

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani _____

Tfn, dotsent V.T.Ishquvatov

2014 yil «___» _____

5140600 «Tarix» ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Normatova Sanobar Nurmanovnaning

“Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik”

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrası dotsenti, tarix
fanlari nomzodi Z.A.Ilhomov _____

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrası mudiri

_____ **t.f.n., dots Z.A.Ilhomov**

2014 y. «___» _____

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA

Kirish	3- b
I bob. Qo'qon xonligi madaniy hayoti va uning taraqqiyoti xususiyatlari	9- b
I.1. Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorif.....	9- b
I.2. Xonlikda musiqa –qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati.....	20- b
I.3. Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi.....	28- b
II bob Xonlik tarixnavislik va tarixiy asarlar yaratilishi	37- b
II.1. Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari.....	37- b
II.2. Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishi.....	45- b
III bob Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik bo'yicha dars ishlanma	55- b
Xulosa	64- b
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	66- b
Ilovalar	70- b

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchiligini barpo qilish bilan bir qatorda xalqaro maydonda ham o'zining barqaror tashqi va ichki siyosati, buyuk va qadimiy tarixi, takrorlanmas ma'naviy merosi va milliy qadriyatlari bilan dovrug' tarata boshladi. Garchi mustabid Sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston tarixi fani to'laqonli tadqiqotini amalga oshirish imkoniyatlari cheklangan bo'lsada, o'zbek xalqi o'zining boy tarixiy merosini ko'z qorachig'idek asrab keldi. Bu haqda so'z yuritar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi so'zlarni alohida takidlagan edi: -"Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimizda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos manaviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi".¹

Darhaqiqat, o'zbek xalqining tarixi va madaniyati bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ajdodlar qoldirgan, asrlar davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy meros esa insoniyat tarixining boy takrorlanmas qismini tashkil etadi. Ularning katta qismi esa madaniyat sohasida to'plangan boyliklardir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Mustaqillik tariximiz uchun qorong'u sahifalarni yanada oydinroq yoritish imkoniyatini yaratib berdi. O'tgan yillar mobaynida ajdodlarimizning yuzlab qo'lyozma asarlari dunyo yuzini ko'rdi, respublikamizda va xorijda minglab nusxalarda nashr etildi. Bu ham tariximizning boy o'tmishiga va merosiga ko'rsatilgan ehtirom va e'tirofdir. Ayniqsa, o'zbek xonliklari davrida yaratilgan yuzlab noyob qo'lyozma asarlar bugungi kunda xalqimizning bebaho ma'naviy merosi sifatida o'z tarkibida madaniy hayotning turli sohalariga ko'plab ma'lumotlarni yetkazib kelayotganligi bilan bir qatorda davlatchilik jarayonlari,

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: "SHarq", 1998. 3-4 - bb.

iqtisodiy va siyosiy hayot tafsilotlari, diplomatik aloqalarga oid qimmatli ma'lumotlarni jamlagan, ayni vaqtda ularning barchasi bu davrlardagi madaniy hayotning eng asosiy jihatlarini aks ettiradi.

Shu jumladan o'zbek xalqi madaniyati tarixida Qo'qon xonligi davridagi madaniy hayot jarayonlari ham alohida ahamiyat kasb etadi, o'zbek xalqining madaniy va ma'naviy merosini o'rganish nuqtai nazaridan Qo'qon xonligi adabiy muhiti, tarixnavislik maktabi, madaniy hayotning boshqa sohalarining alohida xususiyatlarini o'rganish dolzarb tadqiqot mavzularidan biri sanaladi.

Mavzuning tarixshunosligi: Qo'qon xonligi tarixini o'rganish ilmiy adabiyotlarda uch davrga bo'lib o'rganish tavsiya etilgan. Bunda tarixshunoslik masalalarining birinchi davri XX-asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr XX - asr 90-yillarigacha, uchinchi davrini esa mustaqillik yillari tarixshunosligi tashkil etadi.

Dastlabki davr tarixchilari tomonidan xonlik tarixining turli sohalarini dastlabki tasavvurlar va ayrim to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida yoritib berilganligi bilan alohida xususiyatga ega.² Bunday tarixchilar va tadqiqotchilar qatorida XX-asr boshlarigacha ijod qilgan va tarixiy asarlar yozib qoldirgan bir qator rus tarixchilarini ko'rsatib o'tish mumkin. Jumladan, xonlikka elchilik ishlari bilan kelgan kishilar, xususan F.Nazarov,³ N.I.Potanin,⁴ V.V.Velyaminov-Zernov,⁵ M.N.Galkin⁶ hamda A.Nurekin⁷ kabilarning asarlarini va elchilik hisobotlarini kiritish mumkin. Bir qator tadqiqotchilar esa xonlik tarixini o'z asarlarida u yoki bu jihatlarini yoritib o'tishga harakat qildilar. Bunday

² Илҳомов З. Қўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари (таҳлил ва мулоҳазалар). Т.2007. 9-6.

³ Nazarov F. Zapiski o nekotorykh narodakh I zemlyakh Sredney chasti Azii. 1821. Takje. Zapiski o nekotorykh narodakh I zemlyakh Sredney chasti Azii. M. Nauka. 1968. 76-s.

⁴ Zapiski o Kokandskom xanstve xorunjego Potanina. Turkestanskiy sbornik. T. 389. Voyenniy jurnal. 1831. 35-s.

⁵ Velyaminov-Zernov V. V. Istoricheskiy izvestiya o Kokandskom xanstve ot Muhammed Ali do Xudayarxana. 1856. 327-371 ss. Svedeniya o Kokandskom xanstve // Vestnik Russkogo Geograficheskogo obshchestva. 1856. T. 18. 108-151 ss.

⁶ Galkin M. N. Kratkaya zapiska ob istoricheskikh pravakh Rossii na Kokandskiye goroda Turkestan i Tashkent. Russkiy Vestnik. 1856. Turkestanskiy sbornik. T. 6.

⁷ Nurekin A. Ocherki istorii Kokanda s 1841 po 1864 gg. Turkestanskiy vedomosti. 1871.

tadqiqotchilar va tarixchilar qatorida B.Bartold,⁸ B.Pyankov,⁹ E.T.Smirnov,¹⁰ H.Ostroumov,¹¹ V.Nalivkin,¹² H.Dingelshted,¹³ H.Павлов,¹⁴ А.Н.Куропаткин,¹⁵ va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ular o'z asarlari xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan harbiy bosqinchilik yo'li bilan bosib olingan jaroyonlarni yoritib berganlar.

Sho'rolar davriga kelib xonlik tarixini o'rganish borasida tarixshunoslik sohasida bir qator o'zgarishlar yuz berdi. Bunda mualliflar tomonidan xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganligi emas, balki qo'shib olingan» ligiga urg'u berila boshlandi va bu bilan tarixni buzib ko'rsatish holatlariga yo'l qo'yildi.¹⁶ XX-asrning oxirlariga kelib Qo'qon xonligi tarixini o'rganish borasida bir qator yangi fikrlar surila boshlandi. Bunda Rossiya imperiyasi tomonidan xonlikning bosib olinganligi manbalarga asoslanilgan holda yoritila boshlandi.¹⁷

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar masalaning mohiyatiga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgarib, endi tarix haqqoniy ravishda ilmiylikka asoslanilgan holda yoritila boshlandi. Bu davrda yaratilgan ishlariga. H Ziyoyev, H.Bobobekov, SH.Vohidov, N.A.Ahmadjonov, Z.Ilhomov, V.Ishquvvatov, S.Tillaboyev, SH.Mahmudov va boshqalarning ilmiy ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.¹⁸

⁸ Bartold V.V.Tuzemets o russkom zavoevaniyax. \ Turkestaniskiy vedomosti. 1898. Turkesta Soch. T.SH. 1963. Kokand. Soch..1965.

⁹ Pyankov V.Turkestaniskiy dnevnikiI.M.1879.43-s

¹⁰ Smirnov Y.T. Sultani Kenisara iSadiq.T: Tip S.I.Laxina.

¹¹ Ostroumov N.Konstantin Petrovich fon Kaufman.M.1887.

¹² Nalivkin V.Kratkaya istoriya Kokanskogo xanstva. Kazan.1886.

¹³ Dingelshted N.Nashi kolonizatsii v Sredney Azii.Vestnik Yevropii.1892.231-237 –ss.

¹⁴ Pavlov N.Istoriya Turkestana.T.1911.138-167-ss.

¹⁵ Kuropatkin A.N.Zavovevaniy Turkmenii.1889.Jelbyabujskiy Y.Ocherki zavoveyane Xivi.1875.

¹⁶ Usenbayev K.Prisoedineniye Yujnoy Kirgizisii k Rossii.diss.kand ist.nauk.Frunze.1954; Sagatov S.Prisoedineniya Uzbekistana k Rossii I ego znachenije.diss.kand.ist.nauk.M.1957; Beknazarov R. Yug Kazaxstana v sostave Kokanskogo xanstva I ego prisoedineniye k Rossi.diss.kand.ist.nauk.Almata.1969; Inayotov X.Sh. Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shilish arafasidava 1875-1886 yillardagiQo'qon xomligidagi qo'zg'olon.T.1956 va бoшк.

¹⁷ Bobobekov H.H. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olganmi.Fan va turmush.1989-8-son.O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinganmi.Fan va turmush.1989-10-son; Ziyoyev H.Z.Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.Sharq.1998. 478-b va бoшк.

¹⁸ Ziyoyev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.Sharq. 1998.

Shuningdek, xonlik tarixi bilan xorijlik bir qator olimlar ham shug'ullanganlar. Bularning xonlik tarixshunosligining to'rtinchi guruhiga kiritish mumkin. Ular orasida bizga ma'lum bo'lganlari sifatida E.Bekon, D.Ulier, I.Tillet va boshqalarni ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin¹⁹.

Mavzuning manbaviy asoslari: Qo'qon xonligi tarixini yorituvchi manbalar birmuncha salmoqli bo'lib, ular orasida Muhammad Yunus ibn Muhammad Amin - Muhammad Yunus Toibning "Tarixi Aliquli Amirlashkar",²⁰ Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Rozi Muhammad So'fi - Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning "Tarixi Jahonnamoyi",²¹ Beknazarning "Amirlashkar jangnomasi",²² Mullo Olim Mahdumxojaning "Tarixi Turkiston",²³ Ishoqxon Junaydullo o'g'li - Ibratning "Tarixi Farg'ona",²⁴ Mirzo Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiyning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin",²⁵ Muhammad Solih ibn Muhammad Rahim Toshkandiyning "Tarix jadidi Toshkand"²⁶ asari va boshqalar ishning manbalari bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning davriy chegarasi etib XVIII-asrning 2-yarmi-XIX-asrning 70-yillari belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishida Qo'qon xonligida madaniy hayot tahlilini amalga oshirish asosiy maqsad sifatida qo'yilgan. Ishni bajarishda esa quyidagi jihatlarni amalga oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan:

- Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik haqida malumot berish;
- Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorifining asosiy jihatlarni yoritish;
- Xonlikda musiqa-qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati haqida malumot berish;

¹⁹ Bacon E. Central Asiens under Russians Rule. New York. 1966.

²⁰ Sharq yulduzi. 1996 yil. 1-2 –sonlar.

²¹ Sharq yulduzi. 1998 yil. 6-son.

²² Sh. Vohidov. Qo'qon xonligida tarixnavislik. T. Akademiya nashri. 2010.

²³ Mullo Olim Mahdumxoja. Tarixi Turkiston. T. 2010 y.

²⁴ Tarixi Farg'ona. Meros. T. 1992 y.

²⁵ Mirzo Rahim Toshkandi. Qo'qon xonligi tarixi. T. 1995 y.

²⁶ Sh. Vohidov. Qo'qon xonligida tarixnavislik. T. Akademiya nashri. 2010 y.

-Xonlikda memorchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi asosiy xususiyatlarini yoritib o'tish;

-Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari asosiy jihatlarini yoritib o'tish;

-Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishining asosiy jihatlarini yoritish;

-Mavzu yuzasidan dars ishlanmasini ishlab chiqish;

-Tadqiqot yuzasidan umumiy xulosalarni yoritib berish.

Tadqiqotning obektini Qo'qon xonligining madaniy hayoti va tarixnavislikning rivojlanishiga ta'sir etgan ichki va tashqi omillar, shu davrda O'rta Osiyo madaniy hayotida va tarixnavisligida tutgan o'rni tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Qo'qon xonligida madaniy hayot sohalari jumladan, maorif, musiqa-qo'shiqchilik, teatr, askiya, dorbozlik san'ati, me'morchilik va xalq amaliy san'ati, tarixnavislikning rivojlanishi masalalarini izchil o'rganish va tahlil qilish tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida tarixni o'rganish borasida bildirgan fikrlari, milliy g'oya va milliy mafkuraning eng muhim jihatlarini, milliy davlatchiligimiz va ma'naviy merosimizni qayta tiklanishi borasidagi fikrlar, asarlar va ularda ko'tarilgan g'oyalar tashkil qiladi.

Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, ob'ektivlik, ilmiylik tamoyillariga asoslanilgan holda taqqoslash, qiyosiy tadqiqot metodlari, xronologik tahlil kabi tadqiqot uslublaridan foydalanildi.

Ishning amaliy ahamiyati sifatida ko'rsatib o'tish mumkinki, uning natijalaridan Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik bo'yicha ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishda, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayonlarida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi: Bituruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob va beshta paragraf, dars ishlanmasi, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, tadqiqot

jarayonida qo'llanilgan tayanch so'zlar lug'ati hamda ilovalardan tarkib topgan.
Ishning umumiy hajmi 80 sahifani tashkil etadi.

I BOB. QO'QON XONLIGI MADANIY HAYOTI VA UNING TARAQQIYOTI XUSUSIYATLARI.

1.1. Qo'qon xonligida madaniy hayotning umumiy tavsifi va maorif.

O'rta Osiyoda XVIII-asr davomida yuz bergan siyosiy parokandalik natijasida Buxoro xonligi parchalandi va undan asosiy hududlari Farg'ona vodiysini egallagan Qo'qon xonligi ajralib chiqdi va natijada O'rta Osiyo uch xonlikka – Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Har bir xonlik tepasida turgan hukmdor o'z mustaqil davlatining istiqbolini mustahkamlash va istiqboli uchun faoliyatini kuchaytirishga harakat qildi. Jumladan, mamalakatning moddiy va ma'naviy madaniyatini rivojiga alohida ahamiyat berish lozimligi ayon edi.

Madaniyat uning tarkibiy qismi bo'lgan san'atning barcha turlari sohasida salmoqli siljishlar, o'sishlar ro'y berdi, uning taniqli namoyondalari yetishib chiqdi. Bu davrda hunarmandchilik nafaqat yirik shaharlarda, balki qishloq joylarda ham o'ziga xos yo'nalishda bordi. Aynan shu davrda vujudga kelgan dostonchilik - baxshichilik keying asrlardagi yuksalishiga va hozirgi rivojiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.²⁷

Ilm-fanning rivoji asosida yuzlab tarixiy-badiiy asarlar, tarjima ishlari yaratildi. Ular madaniyatimiz xazinasida hozirgi kungacha bebaho meros bo'lib qolmoqda. Ushbu davrlarda yuzlab turli hajmdagi me'moriy inshootlarning bunyod etilganligi, ta'mir ishlarining bajarilganligi esa moddiy madaniyatning rivoji salmoqli bo'lganligidan dalolat bermoqda.²⁸

Bu davrda ham ijod ahli kitobat, xattotlik ishlarida amaliy san'at, musavvirlik va tasviriy san'at namunalaridan samarali foydalanib, o'zlarining betakror san'atlarini yuzlab asarlarga muhrladilar. Adabiyotda, ayniqsa she'riyat ijodida yuqori yutuqlarga erishildi, deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlab joizki, ijodning tarixiy asarlar yaratish, she'riyat sohalari bilan xalqning

²⁷ Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi . T.»Namangan» 1994.56-62- bb.

²⁸ Bobobekov H. Qo'qon tarixi. T.»Fan» 1996. 149- b.

deyarli barcha qatlami vakillari shug'ullanadilar. Bu davrda ma'naviy sohalari ham yuksala bordi. Bu borada shuni ham e'tirof etish lozimki, Turkistonda uch xonliki vujudga kelishi bilan adabiy harakatchilik ham uch mintaqaga bo'linib bordi.

XIX-asr boshlarida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o'rin tutgan. Qo'qon hukmdorlarning qator namoyondalari temuriylar an'anasini davom ettirib, o'zlari ham ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib bu sohani ravnaq topdirishga katta sa'y-harakat qilganlar. Ayniqsa, bunda Qo'qon xonlaridan Umarxon va Muhammad Alixon davrlari yaqqol ajralib turadi.

Xususan, Akmal Sher, Amiriy, Boqixonto'ra, Gulxaniy, Zavqiy, Zoriy, Maxmur, Muqimiy, Muhtazib, Mushrif, Nasimiy, Nizomiy, Xo'qandiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Umidiy, Furqat, Shuxrat va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.²⁹

XVIII –asr oxiri XIX- asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitining rivojlanishida shoir Akmal Sherning iste'dodli shoirlardan biri bo'lgan. Akmal - o'z zamonasining ijtimoiy hayotiga ham nazar tashladi. Jamiyatdagi tengsizlik, pul, mol davlat egalarining har narsaga qodir ekanliklarini, kambag'al pulsizlarning esa har narsadan hatto yor vaslidan bebahra qolishini kuyunib bayon qilgan. Akmal o'z she'rlarida o'sha zamonda mavjud bo'lgan tengsizlik, adolatsizlikni dadil fosh qilib tashlagan edi.³⁰

Amiriy (Umarxon Norbo'tabek o'g'li (1787-1822yy) shoir va Qo'qon xonligining hududining hukmdori edi. Umarxon davrida Qo'qon adabiy muhiti shakllandi ko'plab madrasa masjid va maktablar barpo etdi. O'zbek mumtoz so'z san'ati tarixida o'zbek adabiyoti tarixiga «Qo'qon adabiy muhiti» nomi bilan kirgan ulkan bir adabiy maktabni tashkil etgani va unga homiylik qilganligining o'zi uning madaniyatimiz oldidagi beqiyos xizmatidir. Binobarin uning boy adabiy merosi va serqirra madaniy-adabiy faoliyatini chetlab o'tib, XIX- asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti haqida to'liq tassavur hosil qilish mumkin emas. Amir Umarxon 70 dan ortiq qalam ahlini atrofiga to'plab butun bir adabiy muhitga asos soldi uni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turdi unga rahnamolik qildi. Ko'plab

²⁹Isaboyeva G.S.XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fan.nom.diss. ... T.2010. 63-b.

³⁰ Qayumov A.Qo'qon adabiy muhiti.1961.46-b.

iste'dodlarning ro'yobga chiqishi va xalqqa tanilishida ham Amiriyning hissasi katta.

Fazliy Namongoniy (asl ismi Mulla Abdulkarim) -tarixchi adabiyotshunos va shoir. XVIII- asrning ikkinchi yarmida Namangan shahrining Anorzor mahallasida tugilgan. Otadan bevaqt yetim qolib ona tarbiyasida o'sgan. Fazliy o'zining mahallasida savodini chiqargach o'z davrining bilimdoni muallimi va shoiri Zokir xojidan tahsil ko'rdi. Yoshligidan boshlab she'riyatga havas qo'ygan va o'zi ham she'rlar yoza boshlagan Fazliy tez orada el o'rtasida shuhrat qozondi, xalq og'ziga tushdi. Fazliy g'azallarining avji Qo'qon xoni Amir Umarxonga yetib bordi. Xon uni Qo'qonga chaqirtirdi va saroyda xizmat qilishga taklif qildi.³¹

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk marta she'riy yo'l bilan yaratilgan mazkur tazkirada XIX- asr boshlari Qo'qon adabiy muhitining 100dan ortiq vakillari haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud. Qo'qon adabiyoti vakillari ichida o'sha davr voqea-hodisalarining diqqat bilan kuzatib borgan, turmush va tirikchilik muamolarini hal qilish haqida bosh qotirgan, xalqning orzu -umidlarini ifodalagan o'zining insonparvarligi bilan alohida ajralib turgan Gulxaniy, Maxmur, Madan, Hoziq kabi shoirlar ijodida muhim g'oyaviy-badiiy yangiliklar ham ko'rinar edi.³²

XVIII-asr oxiri-XIX-asrning boshlari yashab ijod qilgan o'zbek shoiri va maslchisi Muhammad Sharif Gulxaniy Qo'qon xonligi adabiyotining eng yirik vakillaridan biridir. Ko'plab mumtoz asarlari o'rgangan va ijod bilan mustaqil ravishda shug'ullangan shoir o'zining yuksak iste'dodi tufayli Umarxon hukmronligi davrida saroy shoirlari davrasiga kirib keldi. U asarlarni o'rgangan va ijod bilan mustaqavishda shug'ullangan shoir o'zining yuksak istedodi tufayli kirib keldi. O'zi yaratgan asarlarida mehnatkash ommaning ruhiyatini ifodalab ularning hukmron tabaqalar jabr-zulm ostida azob chekayotganligini ko'rsatib berdi. Shuning uchun Gulxaniy taxallusi yoniga Jar'ar taxallusi ham qo'shildi. Gulxaniy 12 g'azali va bir qasida yozgan. Gulxaniyning she'r va qasidalar devoni bo'lgan, lekin hozirgacha topilgan emas. Uning nasriy asari «Zarbulmasal»dir.

³¹ Yo'lchi Qosimov. Qo'qon xonligi tarixi. T.»Namangan» 1994. 71-b.

³² Qayumov A.Qo'qon adabiy muhiti. T. 1961.48-b.

Maxmur -Otasi Shermuhammad Akmal o'z davrining yetuk shoiridan bo'lib o'g'li Maxmurning iste'dodidan xabar topgach unga Mir madrasasida tahsil olish uchun sharoit yaratib berdi. Zamonasining bilimlari chuqur egallagan Maxmur demokratik yo'nalishdagi shoir bo'lib yetishdi. U o'zining ilg'or qarashlarini ifodalashda klassik she'riy uslublar, g'azal,qasida muhammaslardan unumli foydalandi. O'zbek va tojik tillarida ijod qilgan shoir badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratdi va o'z davrining taniqli ijodkorlari g'azallariga muhammaslar bitdi. U o'z asarlarida saroy amoldarlari fosh etishga mamlakatda tengsizlik va adolatsizlikni ko'rsatib berishga qaratdi. Muallif o'zining «Xapalak Tarifi viloyati Qurama» kabi she'rlarida zamonasidagi adolatsizliklarni qoralasa lirik she'rlarida esa insoniy muhabbat hayot go'zalliklarini madh etadi. Uning 69 asar to'plangan bo'lib, lirik asarlari esa bayozlarda uchraydi³³.

Qo'qon adabiy muhitining yana bir muhim xarakterli jihati shundaki, bu davrda bir qator taniqli va mashhur o'zbek shoirlari istedodi keng rivoj topdi. Masalan, Dilshod otin, Zebuniso, Mohzoda Begim, Mahzuna, Mushtariy, Nodira, Nozuk Xonim, Uvaysiylarning ijodi ayrica ahamiyatga molikdir³⁴.

Qo'qon adabiyotining yirik va mashhur shoirlaridan biri Nodira-Mohlaroyim(1792-1842) o'zbek shoirasi ma'rifatparvar» «Komila « va «Mahzuna» taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Nodira bir necha kitoblarni ko'chirtirdi va shoirlarni yangi -yangi devonlar asarlar, dostonlar yozishga tashviq qiladi. Nodira bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor beradi. «Mohlaroyim madrasasi» «Dahmai shohon»majmuaasini Nodira qurdirgan. Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi.U muhabbat,sadoqat,vafogo'y kuychisidir. Shoira go'zallik va sadoqatli Sharq xotin-qizlarning dard-alamlari ohu-fig'onlari kuylaydi.

Qo'qon adabiyotining ma'rifatparvar vakillaridan biri Zebunisodir. U XIX-asr o'zbek shoirasi hisoblanadi. U Qo'qonda tug'ilib yashab ijod qilgan vakili hisoblanadi.

³³ Isaboueva G.S.XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fanlar nom diss. ...T. 2010. 64- b.

³⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.2002.6-J. 38- b.

Uning she'rlarida erk va adolat tuyg'ulari ifodalangan. Yana bir shoiralardan biri Mohzoda begim. U XIX- asrda yashagan shoira hisoblanib tarjimayi xoli haqida malumotlar kam uchraydi. Shoira o'z davridagi xotin - qizlarning ayanchli qismati, ularning huquqsizligi va mudhish hayotini tasvirlab, o'zi yashayotgan tuzumning adolatsizligidan shikoyat qiladi.

Qo'qon adabiy muhitining samarali tasiri o'laroq bu yurtidan keyinchalik Muqumiy, Furqat, Zavqiy va boshqa yetuk badiiy so'z san'atkorlari yetishib chiqdi. Umuman olganda, XIX- asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyo xonliklarida adabiyot va tarixshunoslik bilan bir qatorda matematika, tibbiyot, geografiya, astronomiya, oid hamda diniy asarlar yaratildi. Bu xonliklarda miniatura va xattotlik san'ati ham o'z o'rniga ega. Bu davrning madaniy hayotida dorbozlik, askiya, qo'g'irchoq teatri, masxarabozlik, ayniqsa, bastakorlik bir muncha rivojlandi.³⁵

Har uch xonlikda badiiy ijodning «xalq kitoblari» turi rivoj topdi. «Go'ro'g'li» turkumidagi o'nlab jangnomalar, tarixiy mazmundagi romantik, qahramonlik dostonlari, «Tohir va Zuhra», «Oshiq g'arib va Shohsanam», «Sayyod va Hamro», «Sanobar», «Yusufbek va Ahmadbek», «Alibek va Bolibek», «Xurshid va Malikayi Dilorom» kabi dostonlarning xalq kitobi variantlari maydonga chiqdi. Shoiralar xalq og'xaki ijodi materiallarini, ba'zan yozma manbalarni qayta ishlab, o'ziga xos «rivoyat», «qissalar» yaratdilar. Jumladan, Xorazmda Umar Boqiy Navoiy «Xamsa»sidagi dostonlarni «Qissa» ga aylantirdi. Sayodiy «Tohir va Zuhra» ning xalq nusxasini qayta ishlab, doston yaratdi. Hisorlik Sobir Sayqaliy «Qissayi Shahzoda Bahrom va Gulandom» ni kitobat qildi. Shu davrda ijod qilgan Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo mumtoz she'riyatning deyarli barcha janrida qo'l tebratgan alloma «Ibrohim Adham» dostoni va « Rohati dil» manzumasini yozib qoldirgan. Asarlarida islom ahloqi va falsafasi bilan bog'liq g'oyalarni olg'a surgan.³⁶

Shu davrda Mavloniy Sirojiiy, Samarbonu (1837-1891), Salohiddin Soqib (1839-1910) lar ham sohibi devon shoiralar bo'lganlar. Tabiiyki, an'anaviy

³⁵ Hamidov H. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T»Fan». 2009.45- b.

³⁶ Alixo'jayev M.O.Qo'qon madaniyati tarixidan Respublika-ilmiy anjuman materiallari.T.2004.143- b.

dunyoviy muhabbat mavzudagi g'azallar va dostonlar ham yozildi. Ko'plab marsiyalar maydonga keldi. Jumladan, Xorazmlik Roqim (1742-1814) ning devonida o'ndan ortiq marsiya uchraydi. Adiblar Salohiy «Gul va Bulbul»(1740) nomli masal- dostonini yozdi. Shuningdek, Nishotiy «Xusni dil»(1778) falsafiy-majoziy dostonini yozdi. Nurmuhammad Andalib «Yusuf va Zulayxo»,»Layli va Majnun», «Zayn ul- arab», «Sad va Vaqqos» kabi masnaviy- manzumalar bitdi. Buxoroda Abdushukur Shukiriy, Kattaqo'rg'onda Shavqiy, Shahrisabz- Kitobda xalq adabiyoti ohangidagi «Rano va Zebo», «Chor Darvesh», «To'tinomalar» muallifi Xiromiy yashab ijod etdilar. Komil Xorazmiy g'azal, muhammas, masnaviy, ruboiy, qasida janrlarida ijod qildi.³⁷

Shu davrda tarixnavislik, tarjimalik ancha rivoj topdi. Buxoro va Xiva xonliklari tarixini yoritishda Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Yusuf Munshiy, Muhammad Yaqub, Mulla Ibodulla, Muhammad Sharif, Mirza Shams Buxoriy, Munis, Ogahiy asarlari juda muhim ahamiyatga egadir. Qo'qon xonligi tarixi Muhammad Hakim, Avaz Muhammad, Niyoz Muhammad, Mulla Olim Mahdumhoji asarlarida bayon etiladi. Qo'qon xonligida bir necha tarixiy asarlar yaratildi. Jumladan, Mirza Qalandar Mushrif, Muhammad Hakim Xonto'ra Ho'qandiy, Mulla Mirza Olim va boshqalarning ijodiy asarlari boy mulkiy me'ros sifatida katta ahamiyatga egadir.

Shu davr, umuman o'rta asr mahalliy tarixnavisligining mahsuli bo'lgan aksariyat asarlarda o'tmish odatda rivoyatlar, sun'iy shajaralar asosida, hukmdorlar faoliyati esa aksariyat madh yoki iste'ezo uslubida bayon etilgan bo'lsa ham, ammo ularda keltirilgan turli faktik ma'lumotlarda o'sha zamonning ruhi, mafkurasi-iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy hayoti, ma'lum darajada o'z ifodasini topgan. Qo'qon xonligining savdo va hunarmandchilik markazlaridan bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Urganch, Baliqchi shaharlari o'z davrida madaniyat markazlari ham edilar.³⁸

³⁷ Hamidov X. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T»Fan».2009. 50- b.

³⁸ Bobobekov H. Qo'qon tarixi.T»Fan» 1996. 160- b.

Masalan, Qo'qonda 40 madrasa, 120 ta maktab, Marg'ilonda 10 madrasa, 80 ta maktab bo'lgan. Garchi xonlik madaniy hayotida yuksalishlar va taraqqiyot darajasi unchalik yuqori bo'lmasada, o'qitish ishlari va maorif tizimi ma'lum darajada mukammallik kasb etardi. XVIII- asr oxirlarida yuzaga kelgan Qo'qon xonligidagi madrasalar faoliyatida asosiy e'tibor aniq fanlarga nisbatan diniy fanlarni o'qitishga ko'proq yo'naltirilgan bo'lsada, maorif tizimidagi o'zgarishlar ham shu davrlarda yuz bergan ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy jaroyonlar hamda madaniy- ma'naviy hayotda yuz bergan o'zgarishlar bilan hamohang edi. Farg'ona vodiysi hududlarida maktab va madrasalar an'anaviy ta'lim maskanlari sifatida asrlar davomida faoliyat ko'rsatgan. Xonlik tashkil topganidan keyin maktab va madrasalarni hukmdorlar va uning yaqinlari, hokimlar tomonidan barpo etilgan.³⁹

Qo'qon xonligi hukmronligi yillarida mamlakat shahar va qishloqlarida 400 ga yaqin katta-kichik madrasalar bo'lgan. Ulardan Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Xo'jand, O'ratepa kabi yirik shaharlarga 20 tadan 50 tagacha, Namangan, O'sh, Chust, Shaxrihon, Asaka, To'raqo'rg'on kabi kichik shaharlarda 3-10ta atrofida madrasalar mavjud bo'lgan. Qishloq madrasalari, asosan, aholisi ko'p qishloq markazida, odatda, 1-2ta bo'lgan. Boshlang'ich ta'lim beruvchi oddiy uslubdagi maktablar esa xonlik davrida deyarli barcha masjidlar qoshida ishlab turgan.

XIX-asr boshlarida Qo'qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishida va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning o'rni beqiyosdir. Bu ilm o'choqlari xalqni ma'rifatli qilish, an'anaviy ta'limni va madaniy- ma'naviy hayotni yuksaltirishda katta ro'l o'ynagan. Qo'qon xonligida ham ko'plab maktabxona va madrasalar bo'lib ulardagi o'qitish xarajatlari ota-onalar zimmasiga tushgan. Maktabxonalarda bolalar bo'ya yoki sholcha ustida o'tirib o'qishgan, shahardagi har bir maktabxonalrda 10 tadan 30 tagacha bolalar o'qigan, qishloq maktablarida esa undan oz bo'lgan. Odatda maktablarda asosan o'qish va yozish arifmetika va adabiyot o'qitilar edi.⁴⁰

³⁹ Atayev A. Madrasalar tarixiga bir nazar. Moziydan sado. 2008. 30- b.

⁴⁰ Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi. T»Namangan» 1994 56-57- bb.

Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'rni g'azallar yodlar edilar. Maktablar qizlar uchun alohida bo'lgan Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan maktablar soni ko'proq bo'lgan. Bu esa Qo'qonliklarning aksariyat ko'pchiligi savodli bo'lib, o'qish va yozish usta bo'lganligida dalolat beradi. O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari o'quv yurtlari turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflaridan tushadigan daromad hisobiga ishlar edi. 1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan.

Bu madrasani 2ta bosh mudarris boshqargan. Bular xurmatli insonlar bo'lib, katta ilmga ega edilar. Har bir maktabdor domillaning ham o'zicha o'qitish uslublari bo'lgan. Ularning ba'zilar bolaning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan xolda kichik yoshdagi o'quvchilarga xusnihat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Qur'onning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarida yozilgan 10 ta xayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi⁴¹.

Maktablarda ta'limning birinchi bosqichi arab alifbosi o'rgatilgan ikkinchi bosqich «Xaftiyak»(arab tilida) ni xijjalab o'qishgan. Uchinchi bosqichida esa «Chor kitob» o'qilgan. Unda Xofiz, So'fi Olloyor, Fuzuliy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlari o'qilgan.

Oliy diniy malumot beruvchi o'quv yurtlari-madrasalar bo'lib bunday madrasalar Samarqand ,Buxoro,Toshkent, Xiva kabi shaharlarda ko'p asrlardan beri ishlab kelgan. Maktabga borish yoshi ham qat'iy belgilab qo'yilmagan. Maktabga borish oilaning imkoniyat darajasi va bola qobiliyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Aksariyat bolalar 4-5 yoshdan mutolaa qilishni boshlab maktabga 6-8 yoshdan qatnagan. Maktabda o'qitishning davomiyligi domillaga bolaning zehniga va oiladagi muhitga bo'liq bo'lgan. Maktablarda o'quvchilarning soni asosan 30 nafardan oshmagan. Ayrim hollarda esa 8 nafar bola o'qigan.⁴²

⁴¹ Alixo'jayev M.O. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutga o'rni (1800-1876) T.2012. 55- b.

⁴² SH.Karimov,R.Shamsuddinov, O'.Ubaydullayev.Vatan tarixi. T «Sharq».2003. 116-b.

Maktabda darslar jadvali, qat'iy va muayyan o'quv kursi bo'lmagan. O'qitish sinf-dars tizimida olib borilmagan, balki bir domladan saboq oluvchilarning hammasi bir xonadonda o'qigan. Maktablarning mashg'ulotlari juma hayit va Navruz bayrami kunlaridan tashqari har kuni bo'lgan. Ayrim maktablarda ikki marta tanaffus qilingan. Birinchisi «nonxo'rak» deb atalgan u ertalabki soat 10-11 atrofida bo'lib bu paytda bolalar uydan olib kelgan shirinliklar bilan tammadi qilganlar. Tushki soat 13-15 atrofida esa oshxo'rda bo'lib o'quvchilarga issiq ovqat berilgan. Yozda ota-onalar bilan kelishilgan holda ikki oyga tatilga chiqilgan.⁴³

Darslar taxta va qog'ozga yozilgan. Harflar nomi diakritik belgilar o'rnatilgandan so'ng bo'g'inlarni qo'shish o'rgatilgan. Maktab dasturi quyidagi kitoblardan iborat bo'lgan.

1. Chor kitob.
2. Sharif Buxoriyning «Nomi haq».
3. Kulliyot-Chokar Fasl».
4. Muhimmat ul -muslimin».
5. Fariddin Attor-»Pandnomai Attor».
6. Xaftiyak».
7. Axloqnoma»

8. So'fi Olloyor, Fuzuliy, Bedil, A.Navoiy va F.Attor she'rlari va asarlari o'qitilgan.

Qo'qon xonligida maktablarida o'quv, ta'lim- tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishida vaqf mulki va daromadining o'zni katta bo'lgan. Vaqf daromadi maktabning moddiy bazasi hisoblangan. Vaqf mulki bor maktablarda o'qituvchi maoshi maktab binosini tamirlash ishlari vaqf daromadi hisobidan amalga oshirilgan.⁴⁴

⁴³ Xudayqulov T.D. XIX-asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix. fanlar .nom diss.... T. 2009. 129-b.

⁴⁴ Alixo'jayev M.O. Qo'qon xonligida vaqf yerlaridan foydalanish jamiyat va boshqaruv. T.2010. Maxsus son.133-134-bb.

Vaqf mulklari xonlikdagi maktab va madrasalarning tashkil etilishi va uzoq xizmat qilishida hal qiluvchi ro'l o'ynagan. Garchi maktablar vaqf mulklarisiz ham faoliyat olib borsada, madrasalar alohida moliyaviy ta'minot bo'lmasa ish olib bora olmagan. Odatda, xususiy maktablar vaqf bilan ta'minlangan. Madrasalarga ajratilgan vaqf mulklari orasida uzoq vaqt saqlanib turishi mumkin bo'lgan yer maydonlari ekin yerlar, bog'lar va xali o'zlashtirilmagan qo'riq yerlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Maktabni bitirganlarning ayrimlari ustalarga shogird tushib hayot kechirishga kirishgan. Bir qismi esa madrasalarning o'qigan hamda kelajakda olimlar, shoirlar, yozuvchilar va boshqa sohalarining yetuk mutaxassislari davlat arboblari yetishib chiqqan. Madrasa tahsili 21 sentabrdan to 21 martgacha qadar yani 6 oy davom etgan. Mana shu oyda 180 soat dars o'tilar edi. Madrasa dasturiga ko'ra darslar ikki guruhga yani «ulumi naqliya yani islomiy» ajratilgan.⁴⁵

Ulumi naqliyada - Qur'oni Karim, Hadisi sharif, fiqh ilmlari ularga yozib o'rgatilgan va sharhlab o'rgatilgan. “Ulumi aqliya”da esa dunyoviy fanlar – falakiyot, riyoziyot, ilmi nujum, al-jabr, kimyo, geometriya, geografiya, tarix, falsafa, adabiyot, mantiq, arab tili gramatikasi, musiqa, xattotlik san'ati va odob axloq fanlari o'rgatilgan. Madrasalarda o'quv dasturi asosan uch bosqichdan iborat bo'lgan; boshlang'ich (adno) o'rta (avsat) va yuqori(alo) bosqichlarda olib borilib unda uchta til (arab ,fors va turkiy) mukkamal o'rgatilgan.

Madrasalarga talabalar 16-20 yoshdan qabul qilinib, 26 va xattoki 36-40 yoshgacha o'qitilgan. Qo'qon Madrasalarda Qur'oni ilmi, fiqh, handasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, jo'g'rofiya, tarix, tabobat fanlari o'qitilgan. Payshanba kunlari domalalari uylariga ketganlar. Juma kunlari o'qish bo'lmagan. Talabalar ba'zan bozorga borib maddohlarning hikoya va diniy rivoyatlarini eshitar edilar. xonligidagi madrasalar faoliyati qo'shni xonliklardan deyarli farq qilmagan.

⁴⁵ Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari. T.»Namangan». 1994. 53-b.

1. “Adno”- quyi bosqich hisoblanib «Avvali ilm «deb nomlangan islom dinining asoslarini o'rgatuvchi savol- javob tarzida tuzilgan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'rganish bilan boshlangan.

2. “Avsat”- o'rta bosqich. Bu bosqich, bu bosqich talabalari «Aqoid» tamomlab «Mulla Jalol» gacha bo'lgan kitoblarni o'qiganlar.

3. “A'lo”- yuqori bosqich hisoblanib talabalar «Mulla Jalol «dan «Matnni faroiz» gacha bo'lgan asarlarni o'rgangan.⁴⁶

Biroq madrasalardagi ta'lim bosqichlari aynan shu darsliklar bilan qat'iy belgilanmagan. Madrasada har bir bosqich uchun belgilangan asarlarni qanday o'zlashtirganiga qarab bosqichdan bosqichga o'tkazilgan.⁴⁷

Odatda bir bosqichda 3-4 yil o'qilgan. Ba'zan turli sabablarga ko'ra 10 yillab bir bosqichda qolib ketgan talabalarga ham bo'lgan. Bitirganlarga diplom yoki guvohnoma berilmas edi. Faqat qozilik va devonxona lavozimlarga da'vogar bo'lganlarga imtihon qilinib so'ng nomzodlik guvohnomasi topshirilgan. O'quv kunlari haftaning dushanba, seshanba, shanba, yakshanba kunlari bo'lgan. Qolgan kunlari o'tilgan darslarni takrorlash tabiiy ilmlar bilan shug'ullanish badiiy asarlarni o'qishga bag'ishlangan. Madrasalarda Ramozon va Qurbon hayiti kunlari, ta'til vaqtida ya'ni martdan sentabrgacha dars mashg'ulotlari bo'lmagan.

O'qish 30 hafta yoki 120 kun davom etgan tahsil olish bomdod namozidan kechgacha olib borilgan. Madrasa mudarrislar, talabalar, umuman madrasaning barcha xodimlari ham vaqf mulklaridan olingan daromad hisobiga qarab pul berib turilgan. Masalan 1-bosqich talabalariga 4-8 so'm, o'rta bosqich talabalariga 8-16 so'mgacha, yuqori bosqich talabalariga 16-32 so'mgacha pul berilgan.

Shunday qilib Qo'qon xonligida ilm –fan, san'at va adabiyot rivojlandi. Amir Umarxon o'zidan oldingi ma'rifatparvar hukmdorlar singari o'zbek madaniyati va adabiyoti tarixida munosib o'rin egallab o'chmas iz qoldirdi. Maorifda yuksalish kuchli bo'lgan. Maktab va madrasalar ilmga chanqoq bo'lgan juda ko'p yoshlarni o'z bag'riga olgan edi.

⁴⁶ Rasulova B.M.O'zbekistonda musulmon maktab va madrasalar tarixidan. Andijon. 1996. 39-b.

⁴⁷ Shamsuddinov R. Rsulov B. Turkiston maktab va madrasalar tarixi. Andijon «Meros» 1994. 154-b.

1.2. Xonlikda musiqa – qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati.

XVIII-asr oxirlari XIX-asr birinchi yarmida o'zbek xonliklarida ma'naviy madaniyatning barcha sohalari kabi tasviriy san'at, musiqa-qo'shiqchilik, xattotlik, miniatura rassomchiligida ham muhim siljishlar ro'y berdi. Yuqoridagi mavzularda bayon etilganidek, bu san'at turlari o'z maromida yuksala bordi. Shuni ham e'tirof etish lozimki, bu davrda ma'naviy madaniyatini yuksakishi bobida Temuriylar homiylik an'anasini, ayniqsa Nodirabegim, Muhammad Rahimxon (Feruz), Amir Olimxon kabi shoh hukmdorlar o'z mamlakatlarida takrorlashga harakat qildilar. Biroq, o'sha davrda sodir bo'layotgan o'zaro urush va taxt talashishlar natijasida xonlarning tez-tez almashinib turishidan fan va madaniyat uzviy rivojlanishi imkoniga ega bo'lmaydi.⁴⁸

XIX-asr oxirida yashagan Farg'onalik ashulachi va sozandalarning ko'pchiligi serqirra san'atkor bo'lishgan. Bir kishining o'zi ikki-uch cholg'u sozida chalishni puxta egallagan sozanda, bastakor, xofiz, qiziqchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ba'zilar o'zlari uchun doimiy kerak bo'lgan cholg'u sozlarini yasash hunaridan ham xabardor bo'lganlar. Ularning noyob iste'dodi yana shu jihatdan qadrliki, ular nota yozuvlarisiz qanchadan-qancha xalq musiqa boyliklarini, shashmaqomlarni yodaki o'rganganlar va esda saqlab qolib, o'z navbatida shogirdlariga o'tqazganlar. Farg'ona vodiysida xalq professional musiqasi janriga kiruvchi «Shoshmaqom» ning Farg'ona-Toshkent yo'llari va ayniqsa katta ashula keng tarqalgan. O'tgan ajdodlarimiz ijodiga mansub, bir necha yuz yillik tarixga ega bo'lgan maqom va shashmaqom san'ati musiqa- qo'shiqchiligimizning bebaho va betakror gultojisi hisoblanadi.⁴⁹

Ular keyingi asrlar hamda hozirgi-zamon milliy san'atimizning mustahkam poydevori va asosi, bitmas-tuganmas sarchashmasi bo'lib kelmoqda. Ko'rilayotgan davrlarda yurtimizning barcha hududlari xalqlari madaniy hayotiga, xususan, musiqa- qo'shiqchilik yo'nalishiga sinchiklab nazar solinsa, bu davrlarda hamma

⁴⁸Hamidov X. XVI-XIX-asrlarda yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T»Fan».2009. 61-b.

⁴⁹ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. T.1995.18-19- bb.

o'tgan davrlardadigidek, san'at o'sha davr ajdodlarimiz hayotining ham doimiy ajralmas qismi bo'lib qolaverganini kuzatish mumkin. O'rta Osiyo mintaqasida tarixan shakllangan maqomat deyilganda Buxoro shashmaqomi, Xorazm maqomi, Farg'ona-Toshkent maqomi yo'llari hamda ular zaminida yuzaga kelgan va kelayotgan zamonaviy navlari nazarda tutiladi. Maqomotning uchinchi yirik yo'nalishi Farg'ona va Toshkent vohalari bilan bog'liq bo'lib, bu hududlarda vujudga kelgan mumtoz musiqa tizimi umumlashtirilib «Farg'ona-Toshkent maqomi yo'llari» deb ataladi. XVIII-asrda shakllana boshlagan ushbu yo'nalishi XIX-asr oxirlari-XX asr boshlarida Toshkent va Farg'onada har biri alohida maktab sifatida ko'rib, mustaqil nomlar bilan yuritilgan. Jumladan, «Toshkent maqomlari», «Turkiston maqomlari», va «Farg'ona maqomlari»⁵⁰.

O'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra Farg'ona- Toshkent maqom yo'llari shashmaqom, Xorazm maqomlari yoki boshqa bir tizimning ko'chirmasi emas, balki mahalliy sozandalar tomonidan ishlangan shakldir. Tarixiy asarlar, musiqiy risolalar va adabiy tazkiralarda Farg'ona vodiysi hamda Toshkentdan chiqqan yetuk sozandalarning nomlari ko'plab tilga olinadi. Ularning XIX-asrdagi eng yirik ustoz Xudoyberdi ustoz bo'lib, uning ijodi yo'nalishida Farg'ona va Toshkent vohalarida bir necha o'nlab shogirdlarga ijod qilganlar. O'z navbatida ular ham bu an'anani davom ettirib, bu ijodni o'z shogirdlari orqali keyingi avlodga yetkazganlar.

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida ijod qilgan Ashurali Mahramning o'nlab shogirdlari Toshkent, Andijon, Marg'ilon, Namangan, Chimkent, Qashqar, Samarqand, Urganch kabi qator shahar viloyat va qishloqlarda samarali ijod qildilar.⁵¹

Qo'qondagi saroy san'atkorlariga Xudoyberdi ustoz rahbarlik qilgan bo'lsa, uning shogirdi Ashurali esa saroydan tashqarida erkin ijod qildi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Xudoyarxon hukmronligi davrida malum bir muddat san'atni va san'atkorlarni taqib etish, tazyiq o'tkazish kabi juda nohish munosabatlar vujudga

⁵⁰ Hamidov X. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan».2009.65- b.

⁵¹ O'sha joyda .66 -b.

kelib, bir qator mashhur san'atkorlarning markazdan uzoqroq joylarga borib yashashlariga to'g'ri keldi.⁵²

Bu davr san'atining yirik vakili Mulla To'ychi hofiz Toshmuhammedovning ijodi ham juda diqqatga sazovor bo'lib, uning ustoz-shogird munosabatlari rivojiga qo'shgan hissassi Farg'ona-Toshkent maqomlari avloddan-avlodga o'tqazishni an'analarini davom etishida muhim o'rin tutdi. O'zbek san'atkorlarining dong'i faqat Turkiston o'lkasidagina emas, balki qo'shni, chet mamlakatlarga ham yetib borgan. Masalan, Samarqandlik mashhur Hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov Eron, Afg'oniston, Iroq, Hindiston va Yunoniston mamlakatlarida o'z san'atini namoyish qilgan.

Toshkentlik Mulla Toshmuhammedovning ovozini Yorkent, G'ulja, Chuguchak xalqlari sevib tinglaganlar. Farg'ona vodiysining bir guruh san'atkorlari mashhur qiziqchi, musiqachi, raqqos Yusufjon Shakarjonov boshchiligidagi o'z san'atlarini Qashqarda ham namoyish etganlar. XIX-asrning 70-yillaridan boshlab Rossiyaning markaziy shaharlaridan va chet ellardan kelgan mashhur san'atkorlar Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon kabi shaharlarda spektakllar, konsertlar ko'rsata boshlaganlar. Viloyat markazi bo'lgan Farg'ona shahrida va boshqa shaharlarda musiqa sozlari savdosi uchun maxsus do'konlar ochilgan, ularda rus cholg'u asboblari bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan cholg'u sozlari ham sotilgan. To'ychi Hofiz (1868-1943) - Mulla To'ychi Toshmuhammedov toshkentlik o'zbek ashulachilik va qo'shiqchilik san'atining yirik vakili. Kasbi to'quvchilik bo'lgan. To'ychi Hofiz yoshligida amakisi Qo'chqor otadan ashula aytish sirlarini o'rgangan. Ayniqsa, 1890-yilda Shojalil hofiz va Shobarot tanburchi jo'rligida «Shaxnoz-Gulyor» ashulalari sikli To'ychi Hofizga katta shuhrat keltirdi. Keyinchalik esa uning dovrug'i Turkiston o'lkasining shaharlari (Namangan, Xo'jand, O'sh, Marg'ilon, Andijon, Isfara va boshqalar) ga tarqalgan.

To'ychi Hofizning o'zi ijro etgan ashulalardan 25 tasi 1905- yili Riga shahrida, 1911-yil Skobolev (hozirgi Farg'ona) shahrida gramplastinkaga

⁵² Hamidov H. XVI-XIX-asrlarda yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan». 2009. 72- b.

yozdirilgan. To'ychi Hofizning o'zi ham 1908-1910 yillarda Farg'onadagi Adolatxon, Mozidaxon nomli ayol xonandalarni ijrosidagi qator qo'shiqlarni ham birinchi marta gramplastinkaga yozdirgan. 1906-1912 yillarda To'ychi Hofiz tashabbusi bilan Andijon, Farg'ona, Xo'jand va boshqa shaharlarda grammafona va plastinkalar do'konlari tashkil etilgan. Bu do'konlarda o'zbek, rus va yevropacha kuy, qo'shiq va ashulalar yozilgan plastinkalar sotilgan. To'ychi Hofiz 1900-yilda Eron, Turkiya, Italiya, Misr, Hindistonda 1913-yilda Sharqiy Turkistondagi Qashqar, G'ulja, Yorkent kabi shaharlarda, 1914-yilda esa Chuguchak shahrida bo'lib, o'z san'atini namoyish etgan.⁵³

Shu tariqa, XVI-XX-asr boshlari xonliklar davri madaniyati tarixida, jumladan maqomlar san'ati tarixida ushbu davr ijodkorlari, xususan shu yo'nalish namoyondalari bu san'atni kelajak avlodga, yetkazish yo'lida o'z ijodlari bilan salmoqli hissa qo'shdilar.⁵⁴

Qo'qonda xattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif Dabir, Abdulg'ozixoja kabi xattotlarning kitob ko'chirish borasida o'zlari amalga oshirishga xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi.⁵⁵

Ular o'zlariga xos xattotlar maktabini tashkil qilgan, chunki ularning o'z uslublari mavjud bo'lib, boshqa shahar xattotlaridan ajralib turar edilar. Ularning yana bir xususiyati shunda ediki, Qo'qon xattotlarning ko'pchiligi ham shoir, tarixchi, miniaturachi edi. Ular o'z asarlari bilan Qo'qon xattotlik kasbini milliy san'at darajasigacha ko'tardilar. Ulardan biri Muhammad Latif - Qo'qonning mashhur kotiblaridan bo'lib, Shahrisabzlik Muhammad Sharifning o'g'lidir. 1813-yilda nasta'liq xati bilan Navoiyning «Chor devon»ni ko'chirgan. Devon g'oyatda xushxat jadvallari ziynatli, zarxal lavhalaridir.

Abdulg'ozir Xo'ja Xo'qandiy - To'raxo'ja Xusayniy Qo'qandiyning o'g'lidir. U 1848-yilda Alisher Navoiyning «Xamsa» si kitobat qildi.

Mirzo Bobokalon Xo'qandiy - Muhammad Rizo parvonachi Istara-Ravshaniyning o'g'li. U Abdulvosit Manzur tomonidan 1870-yili fors tilida

⁵³ Hamidov H. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T. «Fan». 2009. 72-73- bb.

⁵⁴ Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T.2007.1- b.

⁵⁵ Qosimov .Y.Qo'qon xonligi tarixi. T.»Namangan». 1994. 78- b.

Qo'qon xoni Xudoyorxonga atalib, masnaviy tilida yozilib Xudoyorxonga taqdim etilgan.

Mirzo Sharif Dabir XIX- asrning birinchi yarmida yashagan mashhur Mir Imod kabi kitobat qiluvchi xat ustasidir. U 1836-yili Fuzuliyning devonini nasta'liq xatida nihoyatda g'azal ko'chirgan. 1837-yilda Fuzuliyning saylangan g'azallarini alohida go'zal xattotlik san'ati darajasida ko'chirgan. Alisher Navoiyning saylangan g'azallarini ham juda ixtimon bilan zebo nasta'liq xati bilan ko'chirgan. Ko'chirilgan har ikki sahifadagi g'azallar bilan doira ichiga joylashgan. Doirani quyosh rasmiga o'xshatib nurafshon gullar bilan bezagan, oltin lal bilan ziynatlangan.⁵⁶

Ahmadjon - Qo'qon shahrida qit'a yozuvchi xattotlardan bo'lib, uning asl kasbi po'stindo'z edi. Kishilarga qit'a va ruboiylar yozish, ko'chirib berish bilan shug'ullangan. Uning qo'lyozma qit'a ruboiylari va san'ati xatlari kishilar qo'lida yurgan. Bu xattot Qo'qonda juda mashhur bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra xonliklarda 336-nafar xattot bo'lib, ularning madaniy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Xattotlik taraqqiyoti asosan 4 ta xusnixat maktabiga ega bo'lib, bular xonliklar poytaxtlari va Toshkent shahrida rivojlangan. Qo'qon xattotlik maktabi Buxoro va Xiva xattotlik maktablaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyati shundaki bu yerda nasta'liq bilan bir qatorda badiiy asarlarni kitobat qilishda shikasta xati ham keng istemolda bo'lgan.⁵⁷

Yuqorida nomlari keltirilgan xattotlarning ko'pchiligi o'z iste'dodlarning boshqa qirralarini ham namoyon eta olganlar, chunki ular xattotlik san'atini mukammal egallashlari bilan birga ijodkor shoir bo'lib yozgan she'rlarini nihoyatda chiroyli qilib ko'chirilganlarki, bugungi yosh avlod ularning qoldirgan merosidan bahramand bo'lmoqda.

XVIII- asr oxiri-XIX asr boshlariga kelib teatr sohasida ham birmuncha taraqqiy etib bordi, uning yo'nalishlari ijrodagi o'ziga xos xususiyatlar, takomillashuvlar, ijodiy yondashuvlar rivojlanib borgan. Teatrning kulgili turlari-

⁵⁶ Qosimov .Y. Qo'qon xonligi tarixi. T.»Namangan». 1994. 80- b.

⁵⁷ To'raqulova F, Isaxonova M.Qo'qon xonligida xattotlik san'ati tarixidan.»Qo'qon asrlar silsilasida». Respublika ilmiy anjuman materiallari. 2004 yil 14 may.Qo'qon. 163- b.

qiziqchilik, masxarabozlik, qo'g'irchoq o'yinlar ham asta-sekin badiiy tomosha tizimi sifatida tashkil topgan va san'at turiga aylangan. Ayniqsa, bu davrlarda boshqa hech bir millat ijojdida uchramaydigan o'zbek askiya san'ati ham rivojlanib borgan. Askiya - arabcha zakiiy - o'tkir zehnlilik, hozirjavob degan ma'noni bildiradi. O'zbek xalq og'zaki ijodi turidir. U ikki yoki undan ziyod kishi o'rtasida sayl to'y, bayramlarda, sahnalarda ijro etiladigan ma'lum mavzu bo'yicha badiiy so'z tortishuvidir.⁵⁸

Bu san'at turi asosan XV- asrlarda shakllangan. XVI - asrda Mavlono Burxon Lang, Said G'iyosiddin Sharfa, Mavlono Halil Sahof, Muhammad Badaxshiy kabi yetuk askiyachilar yetishib chiqqan. XVIII-XIX- asrlarda esa bu ijod Farg'ona va Toshkentda rivojlangan. Farg'onada Dehqon Shernazarov (1860-1942), Toshkentda Said Ahmad askiyachi (1880-1940) kabi mashhur askiyachilar o'tgan va ularning dong'i uzoq hududlarga ham yoyilgan. Askiya san'ati bugungi kungacha an'anaviy davom etib kelmoqda. Teatr va tomoshalar ko'rsatish sohalarida esa Qo'qonlik Bidiyorshum nomi bilan tanilgan.

Muhammad Solih (XVIII-asr 2 yarmi-XIX- asr 1 yarmi), XIX-asr 2 yarmida Qo'qonda ijod qilgan Zokir eshon guruhi. Qo'qon qiziqchilar teatrining taniqli aktyori Matholiq qiziq (1849-1910), Marg'ilonlik o'zbek an'anaviy teatrining atoqli namoyondasi, xalq qiziqchisi. Zokir eshon truppasida ishlagan Sadi Maxsum (1825-1889), Zokirjon qiziq guruhida katta qiziqchilardan ta'lim olgan va Qo'qonda ijod qilgan Normat qiziq sulolasi (1849-1919), xalqimizning madaniyatini va san'ati tarixida o'z nomlarini qoldirganlar.⁵⁹

XVIII- asr oxiri- XIX- asr boshlarida Qo'qonda qiziqchilik truppasi tuzilgan. Uni tuzgan shaxs Bidiyorshum. U kattagina truppa tuzib, uzoq vaqt unga rahbar bo'ldi. Qo'qon xoni Muhammad Alixon davrida o'tkazilgan katta saylda ko'rsatgan qiziqchiligi uchun xon unga «sarpolar berib, iltifot qiladi». Qiziqchi Bidiyorshum ishini Qo'qon shahrida tashkil topgan Zokir eshon

⁵⁸ Hamidov H. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan. 2009. 90- b.

⁵⁹ Ziyoyeva D.H. XIX-asr oxiri-XX-asr boshida Farg'ona vodiysida an'anaviy xalq tomoshalari transformatsiyasi.» Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda». Respublika ilmiy anjuman materiallari.2008. 64- b.

boshchiligidagi qiziqchilar truppasi davom ettirgan. Mazkur truppada davom ettirgan. Mazkur truppada asosan Qo'qon, Marg'ilon shaharlari va ularning atroflarida to'plangan Sadi Maxsum, Mulla Hoshim, Usmon qiziq, Marasul qora, Xalimjon kabi yigirmadan ortiq qiziqchi bo'lgan.⁶⁰

XIX- asr an'anaviy teatrining eng yirik va qobiliyatli korformoni (rejissiyor) deyish mumkin. U eng yirik teatr truppasini tuzib, unga rahbarlik qilish bilan birga hajvkor ijrochi sifatida ham barcha qiziqchilarga namuna bo'ldi. Qo'qonda ijod qilgan Normat qiziq sulolasi Zokirjon qiziq guruhida katta qiziqchilardan ta'lim olgan. Keyinchalik o'zi guruh tuzib unda Ro'ziqov, Ismoil xo'roz, Boymat qiziq, Shomat qiziq 360 ta qiziqchilik tomoshasini bilgan va bir yil davomida har kuni yangi tomosha ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan.⁶¹

Ma'lumki xon va beklar iste'dodli ashulachi raqqos sozanda qiziqchilarni to'plashga intilgan. Xudoyorxon teatridan quyidagi foydalangan: qiziqchi, birinchidan unga huzur bag'ishlasin uni kuldirsin, ikkinchidan saltanatni shon-shavkatini bezasin, uchinchidan fe'liga yoqmaganlarni jazolashga yordam bersin, to'rtinchidan barakasi uchayotgan xazinasini to'ldirishga yordam bersin. Saroyda xizmat qilgan Zokir eshon truppasining san'ati xalqqa yaqin bo'lgan xalq manfaatlari uchun ijod qilgan.⁶²

Zokir Eshon Rustam o'g'li (1815-1892) o'zbek xalq teatri namoyondalaridan. Bidiyorshumning shogirdi XIX-asrning ikkinchi yarmida Qo'qon o'zbek professional aktyorlar guruhining korformasi edi. Xalq og'zaki komediyalar ijodkori uning "Xon hajvi", "Zarkokil", "Mozor", "Avliyo", "Hoji kampir", "Farzand duosi", "Qalandarlar", "Dorbozlik kelin tushirdi", "Mardikor va novvoy", "Attorlik" kabi komediyalarida kuchli ijtimoiy mavzu ko'tarilib hayotning salbiy jihatlari fosh qilingan.⁶³

⁶⁰ Solixonov M. O'zbek teatri uchun materiallar. T.1935. 35-36 –bb.

⁶¹ Hamidov H. XVI-XIX-asrlarda yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan». 93- b.

⁶² Qodirov M. O'zbek teatri an'analari. T. 1976. 403- b.

⁶³ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 2002.4-J. 25- b.

Qo'g'irchoq o'yin - xalq og'zaki ijodiga hamda badihoga asoslangan ajoyib san'atidir. Uning yozma teksti bo'lmagan. XIX- asning o'rtalariga kelib bu san'at tur i faollashib bordi.

XVIII- asrning oxiriga kelib esa sirk –dorbozlik san'ati ijodi ham o'ziga xos rivojlanishida davom etib, xalq orasidan ushbu san'at turlarining yetuk namoyondalari yetishib chiqqanlar va xalqqa sidqildan xizmat qilganlar.⁶⁴

Ayol qiziqchilar - o'zbek xotin-qizlari orasida tarqalgan xalq og'zaki san'atining bir turi. XIX- asrlarda ko'pgina shahar va qishloqlarda bu san'at katta ro'l o'ynagan. Masalan, Qo'qonda Iqlim dodxo ismli san'atkor rahbarligida ayol qiziqchilar guruhi bo'lgan. Ularning repertuari turli xil qiziqchilardan, kulgili hikoyalardan, hajviy qo'shiqlardan va yallardan tashkil topgan. Keyingi davrda ham ayollar qiziqchiligi va uning an'analari davom etib keldi. Ayollar qiziqchiligi mazmuni badiiy vositalari bilan erkak masxaraboz va qiziqchilar tomoshalariga yaqin turgan. Farqi shundaki, ayollar qiziqchiligida ijodkor ham, ijrochi ham, tomashabin ham ayollar. Erkaklar ro'lini ham ayollar o'ynagan.

XIX-asr va XX-asr boshlarida Samarqand viloyati, G'us qishlog'idan Kursiya Rustamova, Ro'zi Shoimova, Qashqadaryo viloyatidan Xongul Olimova, Basgul Qudratova, Toshkent viloyatidan Salomat Mutalova, Adolat Tursunova, Andijon viloyatidan Sojida Niyozmatova, Sottixon Ashurova kabi ayollardan ko'plab taniqli masxaraboz va qiziqchilar chiqqan. Bosh mavzu xotin-qizlarning kundalik hayoti, o'y- fikrlari, dardalari, orzu-istakalari, taqdirlari bo'lgan.

Shunday qilib Qo'qon xonligida musiqa-qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati taraqqiy etgan va rivojlangan. Bu yerdan ko'plab mashhur qo'shiqchilar teatr vakillari, mashhur xattotlar yetishib chiqqan. Bu davrda xonlikda siyosiy vaziyat og'ir bo'lishiga qaramay madaniy hayotda dorbozlik, qiziqchilik va ayniqsa bastakorlik bir muncha rivojlandi. Xonlikda san'at, xalq tomoshalar turli o'yin va bayramalar ham mavjud edi.

⁶⁴ Isaboyeva G.S. XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fanlar nom. diss... T.2010. 74- b.

1.3. Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi.

Bu davrda o'zbek xonliklarida moddiy madaniyat sohasidagi muammolarga e'tibor ancha susaygan bo'lsada, har uchala xonlikda o'ziga xos me'morchilik maktabi shakllangan edi. Me'morchilikka e'tibor kuchaygan sari yangi-yangi muhtasham binolar, saroylar bunyod etildi. Xonlikning markazi Qo'qon shahrida Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar qurildi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanib, shiftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni o'yib solish o'sha davrning o'ziga xos xususiyatlari hisoblangan.⁶⁵

Shuningdek, yog'och va misga o'yib nozik naqshlar solish ham keng tarqalgan. Qo'qon me'morchilik maktabidagi uslub Xo'ja Amin maqbarasi (XVIII-asrning 50 yillari), Norbo'tabiy madrasasi (XVIII-asr oxirlari), Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari (1825), Norbo'tabiy va uning avlodlari maqbaralari (XVIII-asr 2-yarmi), Xudayarxon o'rdasi (1871), Andijon Jome masjid madrasasi (XIX-asr oxiri) va boshqalarda mujassam topgan⁶⁶.

Qo'qon xonlari yodgorlik sifatida ikkita maqbarani qoldirganlar. Bulardan biri "Daxmai shohon" uch asosiy qismga bo'lingan: gumbazli xona, masjid - ayvon ikkita ustuni bilan va maqbara bo'lgan. Maqbara uch tarafdin baland bo'lmagan devor bilan o'ralgan, arklar panjara bilan to'sib qo'yilgan. Maqbaraning pastak binosi va gumbazi unga salobat berib turadi. Devor bezagiga ikkita eshik fayz kiritib, to'ldirib turadi, bittasi peshtoqda, ikkinchisi masjidga kirishda joylashgan. Eshikning ustiga naqshlar bilan "Usto Muhammad G'iyosxon" deb yozilgan.

Eng diqqatga sazovor me'moriy yodgorliklar sirasiga 1863-1872 yillarda qurilgan so'nggi hukmdor Xudoyorxon o'rdasini kiritish mumkin. Hozirda bu saroy o'lkashunoslik muzeyi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Arxitektura shakllariga ko'ra Xudoyorxon saroyi O'rta Osiyodagi XIX-asrda

⁶⁵Hamidov H. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan» 2009. 91- b.

⁶⁶ Ismoilova D. «Qo'qon me'moriy yodgorliklar. «Qo'qon asrlar silsilasida». Respublika ilmiy anjuman materiallari. Qo'qon.2004 yil 14-may. 161- b.

yaratilgan binolardan unchalik farq qilmaydi. Biroq saroyning tashqi ko'rinishida o'ziga xosliklar ham bor. Moylik bo'yoqlar uyg'unligi Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi me'moriy yodgorliklarning tashqi ko'rinishiga umuman xos emas. Xudoyorxon saroyining tashqi qoplamasida kamalakning deyarli barcha bu rang - baranglik O'rta Osiyodagi boshqa me'moriy yodgorliklarning oqish-havorang tuslarini qabul qilishga ko'nikkan ko'zni qamashtiradi. Biroq kishi rasmlar va ranglar uyg'unligini qanchalik ko'p tomosha qilsa, naqshdagi rasmlarning o'ziga xosligiga shunchalik hayron qoladi va binoning tashqi ko'rinishini hayron qoladi va binoning tashqi ko'rinishini bezab turuvchi 14 ta tokchadagi naqshlar biron marta takrorlanmasligiga ishonch hosil qiladi. Biroq e'tibor bilan qaralganda bu tokchalar 13 ta ekaniga ishonch hosil qilasiz. Saroyning o'ng tarafidagi tokchalar Qo'qonlik ustalar tomonidan chap tarafidagi tokchalar Buxorolik ustalar tomonidan qurilgan va ular ish uslublari bir-biridan sir tutganligi sababli tokchalarning soni bittaga farq qilgan.⁶⁷

Saroyning ichki xonalari yorqin tusli o'simliksimon naqshlar bilan bezalgan. Bugungi kungacha saqlanib qolgan saroy majmuasi shahar atrofidagi yerlarda joylashgan bo'lib, juda yaxshi rejalashtirilgan. Loyiha tuzilishi va bezak usullarida XIX- asr me'morlarining mahorati aks etgan. Me'morning ismi ham ma'lum - qurilishiga Mir Ubaydulla boshchilik qilgan. Qurilish 1863- yildan 1870- yilgacha davom etgan. Jozibali bezaklarni mashhur Rishtonlik ustalar Abdulla va Jomil, Pskentlik usta Zokir bajargan. Saroy shiftidagi rang-barang bezaklar va saroy qabulxonasidagi o'yma alabaster bezaklarni Fozilxo'ja, Mamasidiq va Yo'ldosh Najarboshi ismli ustalar bajargan. Qurilishda 80-ta usta, mingta g'isht teruvchi va aravakashlar qatnashgan. Saroy egallagan matdon sahni 1 gektaga teng bo'lib bundan bog' va oilaviy mozar mustasno edi. Majmua G'arbdan Sharqqa tomon o'q bo'ylab cho'zilgan saroy va binolar tizimini ifodalab, darvozaga olib boruvchi bir qator bosib o'tiladigan hovlilardan iborat edi.⁶⁸

⁶⁷ Isaboyeva G.S. XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix .fanlar nom. dissT.2010. 137- b.

⁶⁸ Isaboyeva G.S. Dala yozuvlari daftari. T. 2011. 10- b.

Me'morchilik-qadimdan yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan yaratib kelingan moddiy madaniyatning eng muhim mahsullaridandir. Me'morchilik o'tmishda ham xalq amaliy ijodiyotida turli bino va inshootlarning qurilishi san'atini ifadolovchi, katta mahorat hamda mehnat talab qiluvchi ijod turi bo'lib, xalqning bu sohadagi o'ziga xos tarixini, madaniyatini, ijtimoiy-siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, maishiy hayotini malum shakllarda mujassam etadi.

Me'morchilik - shaharsozlikning asosi hisoblanadi. Me'morchilik asarlari qatoriga turli-tuman katta-kichik binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, turli monumental qurilishlar, usti ochiq va yopiq turli soha, yo'nalish, kasblarga mo'ljallangan inshootlar kiradi. Ayni vaqtda me'morchilik ijodi va mehnati o'ziga turli xil san'at namunalarini ham mujassam etadi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan "Yetti mo'jizasi" ning barchasi ham inson dahosi bilan yaratilgan me'moriy san'at asarlari bo'lgani bejiz emas.⁶⁹

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston me'morchiligi ham juda qadimiyligi turli-tuman me'moriy yodgorliklari, yuksak nafosat mujassami bo'lgan mahobatli osori- atiqalari bilan doimo barchani diqqat-etiborini tortib kelgan. Yurtimizda o'tgan bir necha yuz yilliklar davomida, jumladan, XVI-asr boshlarida boshlangan o'zbek xonliklari hukmronligi davrlarida ham me'morchilik madaniyati rivojida o'ziga xos yuksalish jaroyonlari ro'y berib bordi.

To'g'ri, ushbu asrlarda har uchchala xonliklar o'rtasida tez-tez bo'lib turadigan urushlar, ziddiyatlar, shuningdek, har bir xonlikning o'zidagi turli maqsaddagi ichki kurashlar madaniyatning barcha sohalari qatori me'morchilik sohasi rivojiga ham salbiy ta'sir etmay qolmagan. Lekin, shunga qaramay, xalq me'morchiligida O'rta Osiyo me'morchiligining ajoyib an'analari to'xtab qolmadi. Bu ulkan hududda yashovchi o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq xalqlarining yashash va turmush tarsi bu me'morchilikning o'ziga xos milliy tomonlarini belgilashda va davom ettirishda muhim ro'l o'ynadi. O'zbekiston me'morchiligi asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan

⁶⁹ Hamidov H. XVI-XIX- asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar.T.»Fan».2009. 73- b.

an'ana va qonun-qoidalari xonliklar hukmronligi davrida ham o'ziga xos yo'nalishda davom etdi, yuzlab turli me'morchilik madaniyati asarlari bunyod etildi. Quyida ularning ayrimlari haqida qisqa ma'lumotlarni berib o'tish mumkin:

Kosonsoy jome masjidi (XVIII-asr). Namanganda. Atrofi devorli maydonga qurilgan. Masjid eshigi naqshinkor. Bino bezagida oq va novvot ranglardan unumli foydalanish.

Miyon Xazrat madrasasi (XVIII-asr). Qo'qonda. Madrasa ko'p hovlili. Ko'p ustunli masjid ham bor. Hovlilar atrofi hujralardan iborat. Bezaklari oddiy.

Mavlonbuva maqbarasi (1860). Namangan. Shoir Mavlonbuva madrasasi janubrog'ida peshtoq-gumbazli ziyoratxona qad ko'targan. Ziyoratxona ichi ganch suvoqli, moybo'yoq bilan gul solingan.

Modarixon maqbarasi (1825). Qo'qonda. Modarixon (xon onasi) xazirasiga xon avlodlariga mansub ayollar qo'yilgan. Hozir maqbaraning gumbazli xonasi, ikki minorasi saqlanib qolgan.

Kaptarli majmuasi (XIX-asr). Marg'ilonda. Masjid, minora, maqbara va uning hovlisida gumbazli darvozaxona hamda to'rt bo'lakli kaptarxonadan iborat bo'lgan bino va inshootlardan iborat.

Kamol qozi madrasasi (XIX-asr). Qo'qonda. Darsxona, ayvonli masjid va xujralardan iborat. Bezakli, hashamatli qurilma. Darsxonaning tomi gumbazli.

Devona Buva maqbarasi (XIX-asr). Namanganda. Ziyoratgoh-hazira. Go'rxona va ayvondan iborat. Oldi peshtoqli, tom gumbazli, to'rt tomonida eshik o'rni bor. Naqsh va o'ymakorlikdan yaxshi foydalanilgan.⁷⁰

Abulqosim madrasasi (XIX-asr). Toshkentdagi me'moriy yodgorlik. Madrasa, masjid va xonaqohdan iborat. Shayx Abulqosim tomonidan bunyod etilgan. Madrasa bosh peshtoqi sharqqa qaragan va ikki qavatli qilib pishiq chorsi g'ishtdan qurilgan. Bosh peshtoqni bezatishda me'moriy hajm va shaklning o'zidan foydalanganlar, to'rt markazli ravoq ikki qavat balandligida

⁷⁰ Hamidov H. XVI-XIX-asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.»Fan».2009. 76- b.

qilib, yon asoslari esa turli yuzalikdagi berk vertikal ravoqlar simmetrik joylashtirilgan. Peshtoq madrasa devor sathidan 1,82m chiqarilgan, uning balandligi 16m. Bosh tarzining chekka qismlari ustki mezanali guldastalar bilan chegaralangan. Hashamatli peshtoqning kirish qismi, chuqur yarim sakkiz qirrali bo'lib, uch qirrasiga, ikkala qavatiga ravoqli darchalar ishlangan. Bosh tarzining birinchi qatori berk bo'lib, ikkinchi qavati ravoqli ayvonli qilingan. Qolgan tarzlariga me'moriy ishlov berilmagan, silliq pishiq qatorida qoldirilgan. Eski binosi - xonaqoh Mo'yi Muborak 1820-yilda qurilgan, madrasa esa 1850 yilda barpo etilgan. 1983-yildan buyon O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyatining Toshkent bo'limi hamda xalq hunarmandchiligi ustaxonalari joylashgan.⁷¹

Mo'yin xalfa bobo maqbarasi (XIX-asr). Toshkentda. Bu inshoot hozirda qayta qurilgan va me'moriy majmua tarkibidan joy olgan. Ma'lumotlarga ko'ra oldingi maqbarani Samarqandlik xalfa, yani ustalar boshlig'I Mo'yi - buva o'zi uchun qurdirgan. Kelib chiqishi dehqonlardan bo'lgan Mo'yin xalfa Qarshida ta'lim olgan. Bino qurilishiga u Samarqandlik ustalari chaqirgan. Maqbarada ikkita qabr bo'lib, biri-Mo'yin boboning, ikkinchisi-uning o'g'li Umarxonga taalluqli bo'lib, u 1845-yili tugallangan. An'anaviy yechimdagi bir xonali peshtoq gumbazli maqbara tarxida to'g'ri to'rtburchakli, kvadrat xonasi devorlarida ravoqli tokchalar qilingan. Maqbara pishiq chorsi g'ishtdan loy qorishmada tiklangan. Ravoq va gumbazlar ganch qorishmada qilingan. Tashqi va ichki bezagi saqlanmagan. Xona g'arbiy devoridagi chorsi g'ishtin panjara o'rnatilgan yagona darcha orqali yoritilgan. Xonaqoh shifti ikki ustunda ko'tarilgan bo'lib, shifti to'sin vassal qurilmadan iborat. Ayvon qo'sh ustunli bo'lib, shifti to'sin -vassali qilingan.⁷²

Do'sti xudo masjidi (XX-asr boshlari). Farg'onada. Eshon Alixon buyurtmasi bilan usta Yaqub rahbarligida qurilgan. Xonaqoh va ikki yoni ayvondan iborat. Naqshlar bilan bezatilgan.

⁷¹ Bobobekov H.Qo'qon xonligi tarixi.T.»Namangan».1994. 220- b.

⁷² Isaboyeva G.S. XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix .fan nom diss.... T.2010. 135- b.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan me'morchilik inshootlari bilan bilan birgalikda quyida nomlari keltiriloyatgan yana o'nlab me'moriy obidalari ham Qo'qon xonligining so'nggi yillarida barpo etilgan.⁷³

Amir Umarxon Turkiston va uning atroflarini oroldan Yettisuvgacha egallab, Oqmasjid (Qizil O'rda) Avliyoota (Janbul), Pishpak (Bishkak) qal'alarini bunyod etdi. Uning davrida Qo'qonda va boshqa joylarda ko'plab xayrli ishlar qilgan. Norbo'tabiy madrasasi (1799), Muhammad Alixon madrasasi, Madrasayi Kalon qozi (1820), Madrasayi Tunqator, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Haqquli Mingboshi (1825), Madrasayi Miyon Xazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Xakim To'ra (1795), Madrasayi Xonxo'ja eshon (1789), Madrasayi Buzruqxo'ja (1801), Madrasayi Pirmuhammad Yasovul (1802), Madrasayi Xojabek (1805), Madrasayi Oxund devonbegi Jome (1871), Madrasayi Norbo'tabiy(1872) shular jumlasidandir⁷⁴

Qo'qon xonligidagi xalq hunarmandchiligi milliy san'atimizning ajralmas qismining tashkil etadi. Yog'och va ganch o'ymakorligi, naqshu-nigorlari, maishiy va me'moriy kulolchilik, ma'dan kandakorligi va zargarlik sa'nati, to'qimachilik va gazmolga gul bosish, kashtachilik, zardo'zlik va ko'plab boshqa hunarmandchiliklar o'z yaratuvchilarning dunyoni his etish va badiiy didining bemisl namunasini o'zida jo etgan.⁷⁵

Qo'qon xonligida poytaxtdan tashqari Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Marg'ilon va Andijonda shaharliklar hunarmandchilikning ko'pgina turlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Xonlikning ko'p shaharlarida misgarlik, temirchi, kulolchilar, bo'zchilar, zanjirlik, degrezlik, parchabof, kamongar va boshqa hunar egalarining mahallalari bo'lar edi.⁷⁶

Hunarmand va kosiblar qadimdan meros bo'lib kelayotgan ishlar bilan mashg'ul, o'z kasblarida mohir va usta bo'lib ketgan edilar. Asosiy

⁷³ Ismoilova D. Qo'qon me'moriy yodgorliklari. »Qo'qon asrlar sisilasida«. Respublika ilmiy anjumani materiallari. Qo'qon. 2004. 162- b. **Qarang: 1-ilova.**

⁷⁴ O'sh joyda. 164-165- bb.

⁷⁵ Agzamova G.A. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmanchilik va savdo. T.O'zbekiston. 2000. 19- b.

⁷⁶ Isaboyeva G. XIX-asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fanlar nom. diss.T.2010 .100-b.

hunarmandchilik sohalariga ip va ipak matolar to'qish, oyoq kiyimi tayyorlash, teri ishlash, sopol idishlar tayyorlash, temirchilik, egar-jabduq yasash, bo'yoqchilik, misgarlik, zargarlik, duradgorlik, arava hamda omoch yasash, mum ishlash, qamish tomlar yopishdan iborat bo'lgan.

Qo'qon hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak matolar o'zining pishiqligi, chiroyligi va arzonligi bilan ajralib turgan. Shu bois bu matolar haridorgir bo'lib, hatto Yevropa mamlakatlarida ham o'z mijozlariga ega bo'lgan.⁷⁷

Qo'qon xonligi hunarmandchiligining rivojlanishida Marg'ilon shahrida ishlab chiqarilgan ipak matolar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa, Marg'ilonda abr nusxali matolar yengil, nafis va ranglarning tiniqligi bilan ajralib turadi.⁷⁸

Xalq amaliy san'atining ko'hna va barhayot turlaridan yana biri kashtachilik hisoblanadi. Bu hunarmandchilik sohasi juda qadimiy bo'lib, hududimizda tikilgan so'zana, choyshab, palak, gulko'rpa, do'ppi kabi san'at durdonalari butun jahonga mashhur bo'lgan.

XIX-asr zargarlari zumrad, durru marvarid, yoqut, feruza, aqiq, sadaf, kabi qimmatbaho toshlarni oltin va kumushga qadab serjilo, jozibali zeb-ziynat buyumlar yaratishgan. Ularga bolg'alab, hallab o'yib, bo'rttirib naqsh yasab, bosib, qoliplash usullaridan ishlov berilgan. Zargarlar o'z mahsulotlari uchun xom ashyoni Qo'qon va Marg'ilon bozorlaridan sotib olardilar. Xonlik zargarlari har xil xalqalar, tavq, tilla-qosh, uzuklar, bilakuzuk, bozuband, tumordan yasab, qilich dastalarini, ularning g'iloflarini murassa bezatishda usta edilar.⁷⁹

Zargarlikning muhim ashyosi bo'lgan feruza, yoqut, lal, zumrad, qizil-yoqut, lojuvard aqiqalar esa Xo'jand atrofida, So'x va Isfara tog'larida Oltoyda bor edi. Ular Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent bozorlarida sotilardi. Qo'qon shahrida misdan tayyorlangan mahsulotlar alohida ko'rinishiga ega bo'lgan. Xalq amaliy san'atining bu turi taraqqiy etishiga xon saroyiga bog'liq maxsus ustaxonalar

⁷⁷ O'sha joyda. 101- b.

⁷⁸ Ismoilova J. XIX-XX-asrlar Marg'ilon liboslari. Moziydan sado. 2007. 44- b.

⁷⁹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. 1-J. 256- b.

qurilishi sabab bo'lgan edi. Qo'qon mis idishlari hajmining kichikligi, naqshlar jimjimadorligi va nozikligi bilan ajralib turgan. Qopqoq, dastak, jumraklarga zeb berish, naqshlash Qo'qon ustalariga xos bo'lgan. Naqshlarga ahyon-ahyonda rangli shisha parchalari yoki oyna parchalari o'rnatilgan. Feruza toshi ham ustalar tomonidan ishlatilgan.⁸⁰

Zeb-ziynat buyumlari-zargarlik san'atida yaratiladigan bezak buyumlari, taqinchoqlar ayollar libosini boyitib, ularni yanada nazokatli jozibali va ko'rkam qilib ko'rsatishga xizmat qilgan. Asosan, oltin kumush va boshqalarni yasali, javohirlar qo'yib bezatilgan, jimjimador qilib rahkori, kumushni qoraytirib sovodkori, panjarali qilib shabaka va boshqa usullarda o'yma va bo'rtma naqshli qilib turlicha ishlangan, shokilalar bilan bezatilgan. Taqilishiga ko'ra, bosh, bo'yin-ko'krak, soch, quloq va qo'llarga taqilgan. Zargarlik buyumlari o'ziga xos mahalliy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan uchun Xorazmlik zargarlar tayyorlagan zargarlik buyumlari salmoqdorligi, serhashamligi va ko'rinishi bilan ajralib turgan.⁸¹

Qo'qonda kandakorlik maktabi rivojlanganligini ko'rish mumkin. Hunarmandchilikning o'ziga xos yo'nalishi bo'lgan, bu usul o'ymasi sayoz, lekin aniqligi bilan ajralib turgan. O'simliksimon naqshlari ajoyib gullar hosil qiluvchi mayda qismlar, islamiy va garih naqshlari jozibador bo'lgan. XIX-asr oxirlaridan bu san'atda naqsh tarkibida me'moriy obidalar, afsonaviy hayvonlar va odamlar tasvirlana boshladi. Shuningdek, fabrikada ishlab chiqarilgan idishlar mashhur bo'la boshladi.⁸²

Qo'qon xonligining yirik shaharlarining yirik shaharlarida yog'och o'ymakorligi yaxshi rivojlangan. O'yib ishlangan xontaxta, quticha va javonlar ko'p vaqt va mehnat talab qilgan. Shuning uchun ular bozorlarida qimmat narxda sotilgan.

⁸⁰ Velyaminov-Zernov V. Svediniye o Kokandskom xanstve.1856. 125- b.

⁸¹ Ismoilova J.XIX-asr oxiri-XX-asr boshlarida Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda». Respublika ilmiy anjuman materiallari. 2007.274- b.

⁸² Azimov I.O'zbekiston naqshu nigorlari. T.»G' G'ulom.1987. 8- b.

XIX-asrning ikkinchi yarmiga kelib xonlikda xalq amaliy san'atining asosiy sohalari kulolchilik, gilamdo'zlik, duradkorlik va boshqalar bo'lgan. Xonlik hududidagi ayrim shaharlar Qo'qon shahar hunarmandchiligining rivojlanishiga ta'sir etgan. Ayniqsa, Rishton kulolchiligi nafaqat Qo'qon xonligida, balki boshqa davlatlarda ham mashhur bo'lgan. Rishton kulollari ishqor, sir, sozloy kabi xom ashyolarni o'zlari tayyorlashib, topgan ranglari sirlarini mahfiy saqlashgan. 1870-yillarda Rishton kulollarining 130 ta xususiy ustaxonasi bo'lib, ularda 250 dan ortiq kulol va yordamchi xizmatchilar ishlar edi. Ish taqsimoti usta-shogird an'anasi tartibida tashkil etilar edi.⁸³

Qo'qon xonligida qurilish va me'morchilik bilan bir qatorda amaliy san'at ham rivoj topgan. Jumladan, amaliy san'atining naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi yo'nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan bo'lib, ulardan me'morchilikda keng foydalanilgan. Xonlikda amaliy san'atining yuqori darajada rivojlanganligini Xudoyorxon saroyida ko'zga yaqqol tashlanadi. Saroyni qurish va bezashda Abdulla usta, Marasul usta, Masoliq usta, Hakimboy usta va So'fi Yo'ldosh kabi mohir naqqosh ustalar faol qatnashib, xalq amaliy san'atining yuksak namunasini yaratgan.

Shunday qilib Qo'qon xonligida me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etgan. Me'morchilikda sharq uyg'unligi asosida qurilgan. Ularda turli ramz va ma'nolar, mohiyati va qadriyatlar mavjud. Xonlikda moddiy madaniyat an'anaviy tarzda davom etgan. Me'morchilikda asosan masjid madrasa xonaqohlar qurilgan. Qo'qon shahrida me'moriy yodgorliklar misolida o'ziga xos Qo'qon me'morchilik maktabi shakllangan deb aytish mumkin. Xalq amaliy san'atida zargarlik, kandakorlik, kulolchilik, to'quvchilik boshqa sohalar rivojlangan. Ularga juda kata e'tibor berilgan. Zargarlik san'atida juda katta yutuqlarga ega bo'lgan.

⁸³ Xudayqulov T.D.XIX-asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti.Tarix fanlari nom diss.....T.2009.105-b.

II.BOB. XONLIK TARIXNAVISLIK VA TARIXIY ASARLAR YARATILISHI.

2.1. Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari.

Qo'qon xonligi tarixi eng avvalo shu yerlik tarixnavislarning asarlarida o'z aksini topgan. XIX-asr va XX-asr boshlarida saroy tarixchilar hamda saroyda yashamagan muarrixlar yaratgan qator tarixiy va adabiy asarlarda Qo'qon xonligining tashkil topishi. U yerda hukmronlik qilgan xonlarning faoliyati, xonlikdagi siyosiy ahvol, xo'jalik va madaniy hayot bayon qilingan. Mahalliy tarixnavislarning asarlari xonlik tarixini o'rganishda birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy manbalar hisoblanadi.

Qo'qon tarixnavislarining asarlari o'z janr va uslublari jihatidan O'rta Osiyo va sharq tarixnavislik an'analari asosida yaratilgan. Ma'lumki, musulmon tarixshunoslik konsepsiyasi, shu jumladan Qo'qon xonligi muarrixlari ilgari surgan konsepsiyalar Qur'on Karim, hadislar va agiografik (diniy yo'nalishdagi tarjimayi hol) adabiyotlarga asoslanadi. Sharq mamlakatlari va Qo'qon xonligida tarixiy tafakkur kosmogonik (dunyoning kelib chiqishi), kosmologik (koinotning tuzilishi), teologik (diniy ta'limot), sotsiologik va esxatologik (dunyoning oxiri-qiyomat-qoyim) ta'limotlarga asoslanadi. Olamning yaratilishi, ilk odamning paydo bo'lishi, turli qabila va xalqlarning kelib chiqishi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash kabi masalalar ularning asarlarida muhim o'rin tutadi.⁸⁴

Musulmon mualliflari va ular qatorida Qo'qon tarixnavislarning maktabi vakillari tarixni "boshidan", ya'ni olamning, Yer va unda hayotning yaratilishidan, Odam Ato va Momo Havoning paydo bo'lishidan to o'zlari yashagan davrgacha yoritish zarur deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham ko'pincha Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlar "olamning yaratilishi" dan boshlanib, ularda payg'ambarlar, xalifalar, davlatlar tarixi sulolaviy – xronologik tartibda bayon etiladi va asarning so'nggi fasllarida bevosita xonlik tarixi yoritiladi. Qo'qon xonligi muarrixlari o'z asarlarini yaratishda oldingi zamonlarda musulmon

⁸⁴ Arslonzoda R. Qo'qon xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi. Farg'ona.2010.8- b.

Sharqida yozilgan tarixiy asarlarga tayanganlar. Shu bilan birga mualliflarning o'sha zamonda yashaganligi, ko'p tarixiy voqealarni shohidi va ishtirokchisi bo'lganliklari ham ular uchun boy materiallar bergan. Mahalliy tarixnavislarning asarlari o'z manbaviy ahamiyati nuqtai nazaridan bir xil emasdir. Saroy tarixchilar yoki hukmron sulolaga yaqin muarrixning asarlari Qo'qon xonligi o'tmishiga oid ishonarli faktlarga boydir, chunki mualliflar mamlakatda ro'y bergan voqealarga xususida yetarli darajada xabardor bo'lganlar. Ammo poytaxtdan yiroqda yashab ijod etgan tarixchilar esa ba'zi hollarda tarixiy voqealar haqida boshqalardan eshitganlarini yozganlar, shuning uchun ularning asarlarida talay noaniqliklar uchraydi.⁸⁵

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, musulmon mualliflari tarixga teologik (diniy) nuqtai nazardan yondashganligi sababli ko'pincha voqealarning asosiy sabab va oqibatlarini to'g'ri talqin qilmaydilar. Tarixiy shaxslar faoliyatiga baho berishda ham ularning ijtimoiy mavqei muhim rol o'ynagan. Jumladan, hukmdorlarni maqtab, ularning siyosatig tanqidiy jihatdan yondoshmaslik saroy tarixchilari asarlariga xos bo'lgan nuqsonlardan biridir.

Qo'qon tarixnavislari asarlarini asosan ikki guruhga bo'lish mumkin: 1 tarixiy-adabiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o'rinda turadi; 2 adabiy-tarixiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar sabablariga asosiy e'tibor qaratiladi. Mahalliy tarixnavislarning Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlari asosan o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan.⁸⁶

Tarixiy asarlarni qaysi tilda yozilganiga qarab arab, fors-tojik va turkiy guruhlariga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'z navbatida umumiy tarixga bag'ishlangan yoki alohida mamlakatlar tarixiga taalluqli asarlarga bo'linadi.

Qo'qon tarixnavislari asarlari asosan arab, fors va turkiy tillarda bitilgan manbalarga tayanadi. Qo'qonlik tarixnavislarning asarlarida ko'proq quyidagi manbalardan foydalanilgan:

⁸⁵ Ishanxanov S.X. Katolog monet Kokanda. XVIII-XIX vv. T. "Fan", 1970. 40- b.

⁸⁶ Vohidov Sh.H. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlar doktorlik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.1998. 94- b.

1. Rashiduddin Fazlulloh ibn Umar ud-davla Abulxayr Hamodoniyning “Jome ut-tavorix” nomli asari. Xulagular sulolasiga mansub Eron hukmdori G’ozonxon (1295-1304) ga bag’ishlab yozilgan. Bizgacha asarning faqatgina I va II qismlari yetib kelgan. Asarning II qismi Hofiz Abru tomonidan tahrir qilingan va “Majma at-tavorix”, “Zubdat ut- tavorix” (Tarixlar sarasi) nomlari bilan mashhur.

2. “Zayli majma al-ansob”. G’iyosiddin Ali Noib Faryumadiy asari. 1381-1382 yillarda yozilgan.

3. “Zafarnoma”. Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning nazmiy asari.

4. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si.

5.”Muntaxab at-tavorix”. Hasan ibn Muhammad ash-Sheroziy asari.

6. “Muhit ut-tavorix”. Muhammad Amin ibn Mirzo Muhammadzamon Buxoriy So’fiyoniy asari. Ashtarxoniylar zamoni amaldori Ibrohim qushbegi topshirg’i bilan yozilgan.

7.”Taboqoti Nosiriy”. 1258-1260- yillarda Minhojuddin Juzjoni tomonidan yozilgan asar.

8.”Tarixi Abulxayrxoniy”. Mas’ud ibn Usmon Ko’histoni tomonidan yozilgan. 1540-yilda Abulg’ozi Sulton Abdullatif Bahodirxon Shayboniy topshirig’i bilan yozilgan.

9.”Tarixi guzida” (Tanlangan tarix). Hamdulloh ibn Abu Bakr Qazviniy asari. Asar G’iyosuddin Muhammad ibn Rashiduddinga bag’ishlangan.

10. “Tarixiy Narshaxiy”. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy asari. 1128-yilda Abu Nasr Ahmad Quboviy tomonidan tojik tiliga o’girilgan. Bizgacha Muhammad Zufar ibn Umar tomonidan qisqartirilgan variantining nusxalari yetib kelgan.⁸⁷

Yuqorida sanab o’tilgan asarlar qatoriga Rudakiy va Firdavsiydan boshlab XX-asrning ma’rifatparvar shoirlargacha bo’lgan adiblarning asarlarini kiritish mumkin. Ularning asarlaridan Qo’qonlik tarixchilar tomonidan she’riy bezak sifatida foydalanganlar.⁸⁸

⁸⁷ Ahmedov B.R.O’zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T.2001. 20- b.**Qarang: 2-ilova.**

⁸⁸ O’sha joyda 22- b.

Qo'qon tarixchilari uchun manba bo'lib xizmat qilgan yana bir manba- bu folklo'r, xalq og'zaki ijododir. Bu rivoyatlar, ertakalar, dostonlar, asotirlar, matallar va maqollar hind- eron va turkiy xalqlar, sulolar va ayrim tarixiy shaxslarning kelib chiqishi, shajarasi to'grisidagi fantastik syujetlarida. Misol tariqasida, Ming sulolasini afsonaviy asoschisi Oltin Beshik haqidagi hikoyalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Shunday qilib Qo'qon tarixshunoslik maktabining vujudga kelishida oldingi zamon tarixchilarning asarlari, shuningdek, Sharq mutaffakirlarning tarixnavislik an'analari muhim ro'l o'ynadi. Ma'lumki, musulmon Sharqida tarixiy asar faqat sof xronikal mavzudagi asar bo'lmasdan, balki ayni vaqtda badiiy-tarixiy janrga mansub adabiy asar ham edi. An'anaga ko'ra, Sharq tarixchisi, ma'lum bir dunyoqarash, estetik did va qadriyatlarga sohibi sifatida tarixiy voqealarni badiiy tasvirning boy vositalarini qo'llagan holda bayon etadi. Aks holda elitar o'quvchi uning asarini qabul qilmas edi.

Tarixchilarning yozuvchilardan farqi shundaki, ular faqat o'z davri ruhini berib qolmay, balki xalq hayotini ma'lum zamon jaroyonida tasvirleydilar. Shuning uchun ham tarixiy asarlar o'z manbaviy ahamiyatini yo'qotmaydilar, aksincha, vaqt o'tishi bilan ularning ahamiyati ortib boradi. Har bir tadqiqotchi-manbashunos o'z qo'lidagi yodgorlikning manbaviy imkoniyatlarini o'zi belgilaydi. Bu holda manbaning ahamiyati va qiymati doimiy bo'lmay, balki o'zgarib turishi mumkin.⁸⁹

Qo'qon tarixnavislik maktabida yaratilgan asrlar o'zbek va tojik tillarida ham nasriy, ham nazmiy shaklda yozilgan. Ular tarixnavislik va adabiyotning turli janrlarga mansubdir. Tarixiy asarlar doston, qissa, esdaliklar shaklida yozilgan. Ular orasida «sof» xronikal asarlari ham uchraydi, bu holda tarixiy mazmun va faktologik bayon manbaning boshqa imkoniyatlarini cheklab qo'yiladi. Tarixiy asarlar ayrim epizodik mavzularga bag'ishlangan. Qo'qonlik mualliflarning

⁸⁹ Nabiyev R.N. Iz istorii Kokandskogo xanstva . T.1973. 50- s.

ko'pgina asarlari tarixni dinamik holda, ya'ni doimiy o'zgarishlar shaklida aks ettiradi.⁹⁰

Qo'qon xonligining birinchi tarixnavisi Fazliy Farg'oniy bo'lib u "Umarnoma" nomli kitob muallifidir. Fazliy Farg'oniy keng ma'lumotli va original shoir edi. U "malik ul-shuaro" unvoniga ega bo'lib, Qo'qon adabiy muhitida ulkan obro'ga ega bo'lgan. Fazliy yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarni Amir Umarxonning ko'rsatmasi bilan yozgan. "Umarnoma" tojik tilida she'riy yo'l bilan yozilgan. Mazkur asarning yagona nusxasi Rossiya FA Sankt-Peturburg bo'limi fondida saqlanmoqda.

"Umaroma" Amir Umarxonga ma'qul bo'lmadi, chunki uning talablariga javob bermas edi. Mushrif Isfarangiyning qalamiga mansub ushbu asarining nasriy variant bilan taqqoslab, shunday xulosaga kelishi mumkinki, Fazliy Farg'oniy bir necha "xatoliklarga" yo'l qo'ygan. Birinchidan, Minglar sulolasining asoschisi Oltin Beshik haqidagi rivoyatni keltirmaydi. Bu rivoyat Umarxonning Bobur orqali Temur va Temuriylar bilan qarindoshligini isbotlashi kerak edi. Ikkinchidan, Amir Umarxon o'zini amir al-muslimin deb e'lon qilib, islom va din peshvosi ro'liga da'vo qilgan edi. Bu da'voni tarixiy jihatdan asoslab berish zarur edi. Mushrif Isfarangiy esa Umarxonning sayyidlar avlodidan ekanligini asoslab berishga harakat qildi. U xonning shajarasini tuzib, u ona tomonidan Muhammad payg'ambarning qizi Fotimaning avlodidan ekanligi isbotlab berdi.⁹¹

Mushrif Isfarangiy hali Umarxon saroyida keng ma'lumotli kishilardan edi. 1818-yilda Amir Umarxon uni qoziaskar etib tayinlaydi. O'sha davrda bu eng yuqori mansablarbdan biri edi. 1821-yili Umarxon Mushrif Isfarangiyga Fazliy asarini qayta ishlashni topshiradi. Mushrif "Umarnoma" ni nasriy yo'l bilan bayon etib uni "Shohnomayi nusratpayom" (Shohning g'alabalari haqida xabar beruvchi kitob) deb ataydi.

Bu ikki asarni bir-biriga qiyoslab, shunday xulosalar chiqarish mumkin. Fazliy o'z asari bilan erkin adib sifatida gavdalanadi. U o'zining estetik didi,

⁹⁰ Vohidov SH.V. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlar dok. diss..... T.1998. 95- b.

⁹¹ O'sha joyda. 104- b.

prinsiplari, istoriografik konsepsiyasiga sodiq qoladi va ko'z o'ngimizda tarixiy obektivizm vakili sifatida gavdalanadi.

Umarxon hukmronligi davri va xonlikning madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi muhim manba- bu Dilshodi Barno qalamiga mansub "Tarixi muhojiron" nomli asardir. "Tarixi muhojiron" tarixiy-epizodik xarakterdagi asar hisoblanadi. Muallif esdalik tarzida Umarxonning 1816-yilda O'ratepaga qilgan navbatdagi asarning odamni asir etib, ularni Farg'ona vodiysiga Shahrixon yaqinidagi o'ttiz adir shahrida 1800-yilda tug'ilgan. Qo'qonda u va yana 2 nafar qizni Umarxon haramiga tanlab olishadi, ammo u o'zining o'jarligi va xonga qo'rslik bilan javob qaytarganligi bois haramga tushmay qoldi. Keyinchalik u turmush qurib, uzoq umr ko'rdi va XX-asr boshlarida vafot etdi. Dilshodi Barno o'z ona tili-tojik tilida va o'zbek tilida ijod qilgan. U shoira va tarixchi sifatida o'ziga xos iste'dod egasi edi. Bu uning asarlarida yaqqol sezilib turardi. "Tarixi muhojiron"- emotsional-dramatik va ma'lum ma'noda tragik asardir.⁹²

Hoji Muhammad Hakimxon To'ra Xuqandiy undan 1843-yilda yozib tugallangan. "Muntaxab at-tavorix" asaridir. Hakimxon to'ra XVI-asrda yashab o'tgan mashhur ulamo Maxdumi xojining avlodi bo'lmish Sayid Ma'sumxon to'raning o'g'li edi. Uning onasi - Oftob oyim Norbo'tabeyning qizi edi. Hakimxon to'ra 1807-yilda tug'ilgan. Uning otasi Sayid Ma'sumxon to'ra Norbo'taxonning o'g'illari Olimxon va Umarxonlar davrida shayxuislom lavozimini egallar va bu xonlarning maslahatchisi hisoblanar edi.

Hakimxon To'ra yoshligida o'zining tog'alari Olimxon va Umarxonlarning harbiy ishlarida ishtirok etdi, saroy shoirlari bilan muloqotda bo'ldi va ularning turli ishlarida qatnashdi. U o'zbek va tojik tillarini mukammal egalladi va tarix bilimdoni sifatida shuhrat topdi. Hakimxon To'ra Shahrisabzda yashgan davrida o'zining "Muntaxab at-tavorix" nomli asarini yozdi. Asar o'zbek tilida yozilib, birdan tojik tiliga tarjima qilinadi. Muallif dastlab o'zining o'tmish haqidagi qarashlarini bayon etadi, so'ngra Shayboniylardan to Mang'itlar hukmronligi davri haqida fikr yuritadi. Asarning eng qimmatli qismi - bu Qo'qon xonligining

⁹² O'sha joyda. 137- b.

bir asrdan ko'proq tarixi bayon etilgan manbadir. Asarning so'ngida Hakimxon To'ra o'zining sayyohatlari paytida ko'rgan - kechirganlarni haqida ma'lumotlar beradi.

Muallif qator tarixiy yozma manbalardan, shuningdek o'zi shohid bo'lgan hamda voqealarning guvohi bo'lgan kishilardan so'rab-surishtirib to'plagan materiallardan foydalangan. Asarni yozib tugatganida, Muhammad Hakimxon To'ra chamasi 40 yoshlarda bo'lgan. Demak, u Olimxon va Umarxon saroyidagi voqealarni hali yaxshi asar saqlagan. Shuning uchun ham "Muntaxab at-tavorix" ning Qo'qon xonligi tarixiga oid qismini ishonarli tarixiy manba, deb hisoblashimiz mumkin.

Shunisi e'tiborga loyiqki, muallif asarda xonlikning qo'shni mamalakatlar, jumladan Buxoro amirligi, Xorazm va Qoshg'ar bilan aloqalari haqida, Afg'oniston va Turkiyadagi ayrim voqealar haqida ham ma'lumotlar beradi. Asarda diqqatga sazovor jo'g'rofiy ma'lumotlar hamda xonlikning madaniy hayotiga doir xabarlar uchraydi. Hakimxon To'ra ayrim amaldorlarning o'z lavozimlaridan suiste'mol qilishini ham etibordan chetda qoldirmaydi.

«Muntaxab at-tavorix» ning xarakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, unda faqat Qo'qon xonligi, balki Rossiya, Turkiya, Eron va Iroqning XIX-asrning birinchi yarmidagi ahvoli xususida ham original ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, muallif Rossiyaning sharqiy gubernalari hamda Orenburg, Samara, Astraxan va Irbit singari shaharlari, ularning aholisi, bu shaharlardagi savdo munosabatlari va unda O'rta Osiyolik savdogarlarning ishtiroki haqida ma'lumotlar beradi. Ammo «Muntaxab at-tavorix» ning Muhammad Alixon hukmronligi davriga oid qismidan foydalanishda ehtoyotkorlik, tanqidiy ruhda yondashish zarur, chunki xon va muallif o'rtasidagi adovat tufayli Hakimxon To'ra Muhammad Alixon shaxsiga ba'zansubektiv baho bermaydi. Hakimxon To'ra 1842-yilda Amir Nasrulloning Qo'qonga yurish qilishi tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.⁹³

⁹³ Vohidov Sh.H. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari dok. diss..... T.1998. 149- b.

XIX-asr o'rtalarida yaratilgan asarlarning mazmun va mavzularini tahlil etish borasidagi xulosalar qilish imkoniyatini beradi. Birinchidan, mazmun jihatidan bu asarlar hukmdorlarning taxtga chiqishi va taxtga chiqishi va taxtga da'vogar bo'lgan shaxslarning olib borgan kurashi, markaziy hokimiyatning qipchoqlarga qarshi kurashi, rus qo'shinlariga qarshi dastlabki janglar, xonlikka qarshli Turkiston, Avliyota, Chimkent, Toshkent, Jizzax, O'ratepa, Xo'jand singari shahar va qal'alarni mudofaa qilish masalalariga bag'ishlangan. Bu masalalar «Tarixi Jahonnoyi», «Tarixi Alimquli amirlashkar», «Tarixi Shohruhiy» nomli asarlarda, shuningdek «Xulosat ul-ahvol» nomli avtobiografik asarida yoritilgan⁹⁴.

Turkistonlik davlat arboblarning taqdiriga bag'ishlangan asarlardan biri Muhammad Umar Umidiyning «Maktubchayi xon» nomli she'riy asaridir.⁹⁵ Asar o'zbek tilida yozilgan bo'lib, unda Xudoyorxonning shaxsi bilan bog'liq holda Qo'qon xonligi tarixining ayrim qirralari yoritiladi. Orenburgga yuborilgan sobiq xon u yerdan qochib, Makkai mukarrama va Madinayi Munavvarani tavof etib, haj ahkomlarini bajaradi va Afg'onistonga keladi. U o'limidan oldin Istambuldagi rus konsuli orqali podshohga xat yozib, vatanga qaytishiga ruxsat so'raydi. Podshoh unga Toshkent shahrida yashashga ruxsat beradi. Ammo qaytish paytida Hirot shahri yaqinidagi Kuruh qishlog'ida Xudoyorxon vafot etadi. Umidiyning asari 1885-yilda Xudoyorxon hayoti bilan qiziqib Farg'onaga kelgan Turkiya fuqarosi Abdurahim afandining iltimosiga ko'ra yozilga edi.

Shunday qilib XVIII-asrga kelib O'rta Osiyo-Turon zaminida Qo'qon, tarixnavislik maktabi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixnavislik maktablari va tarjimonlik maktablari shallanadiki, bu o'z navbatida mang'it va qo'ng'iro't sulolarining hukmronlik davriga tegishli. Qo'qon tarixnavislik maktabi turli janrlarda ijod qilib tarixiy asarlar yaratildi. Bu tarixiy asarlar o'zining xususiyatlarini bilan ajralib turadi.

⁹⁴ O'sha joyda .1199-213- bb.

⁹⁵ Arslonzoda R.A.Qo'qon xonli tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi.Farg'ona.2010.55-b.

2.2. Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishi.

Qo'qon xonligida tarixnavislikning shakllanishi va uning o'ziga xos maktab darajasida rivojlanishi, xonlikning ichki va tashqi siyosiy hayoti, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni yoritib beruvchi jihatlari bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixnavisligidan ancha farq qilib, asosiy farqi eng avvalo manbalar sonining ko'pligi, tarixnavislarning tarix kitoblarini yaratishdagi sermahsulligi, voqealarni anchayin batafsil va muvaffaqiyatli darajada yoritib bera olishida ko'rinadi. Shuningdek, Qo'qon xonligi tarixnavisligida tarixiy shaxslar (Xudayarxon, Aliquli Amirlashkar, Mullo Xolbek va boshqalar) hayotini aks ettiruvchi biografik mazmundagi asarlar, tashqi va ichki dushmanlar bilan olib borilgan To'qnashuvlar jarayonlarini ochib beruvchi jangnomalar (Zafarnomayi Xudoyorxoniy,» O'rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282-yillarda qilg'on futuxotlari») kabi asarlar ham mavjudki, bunday asarlarni Buxoro yoki Xiva tarixnavisligida uchratmaymiz.⁹⁶

XIX-asrning 60-yillari ikkinchin yarmi - 70-yillarida Beknazar hamda Avaz Muhammad Attor Xo'qandiylar tomonidan yaratilgan manbalarda bo'lib o'tgan voqealarga obektiv nuqtai-nazardan yondashish kuzatiladi. Beknazar va Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy asarlari voqealarning xolisona, jonli va ishonarli tarzda yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Beknazarning «Amirlashkar jangnomasi» xijriy 1269 (milodiy 1878) yilda Muhammad Niyoz Ohund tomonidan ko'chirilgan bo'lib, 17 varaqdagi 238 baytdan iborat she'riy asardir. «Amirlashkar jangnomasi» arab alifbosida, nasta'liq xatida o'zbek tilida yozilgan bo'lib, Beknazar o'z asariga maxsus sarlavha qo'ymagan. Muallif chor Rossiyaning xarbiy bosqinchiligiga qarshi kurashlarda faol ishtirok etib, ko'plab janglarning guvohi bo'lish bilan birga Qo'qon xonligining ichki siyosati bilan aloqador bir qator voqealarni ham yoritib beradi⁹⁷.

⁹⁶ Vohidov Sh.H. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari dok. diss..... T.1998.150- b.

⁹⁷ O'sha joyda.

Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro'zi Muhammad So'fi- Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning « Tarixi jahonnamoyi» asari ikki jilddan iborat bo'lib, tojik tilida, arab alifbosining nasta'liq xatida yozilgan. Bu asar manbashunos olim Sh.H.Vohidov tomonidan chuqur o'rganilgan.⁹⁸ Olimning ta'kidlab o'tishicha,» Tarixi jahonnamoyi» asarining birinchi jildi bugungi kunda Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Institutining Sank-Peturburg bo'limi qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi.⁹⁹

Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy o'z asarida Qo'qon xonligi siyosiy hayoti masalasi bilan bog'iq ko'plab qimmatli malumotlarni keltirib o'tadi. Muallif Qo'qon xonligining chor qo'shinlariga qarshi olib brogan kurashlari tarixini yoritarkan, unda Qo'qon xonligining sarkardasi Aliquli Amirlashkarning faoliyatiga alohida to'xtalib o'tadi va uni juda yuqori baholaydi. Ayrim hollarda uning malumotlarida mubolag'a xolatlari uchrasada, o'z navbatida malumotlar ham mukammalligi bilan boshqa asarlarga nisbatan ajralib turadi.

Bunday asarlar qatoriga Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asarini ham kiritish mumkin. Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asari 196 bet (98 varaq) dan iborat bo'lib, o'zbek tilida, arab alifbosining nasta'liq xatida nasriy usulda yozilgan asardir.¹⁰⁰

Muhammad Yunus Toib Qo'qon xonligida 1860-1865-yillar davomida shig'ovul mansabida faoliyat yuritgan va asosan soliq ishlarini nazorat qilish hamda elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. U Mallaxon, Sulton Sayyidxon hamda Aliquli Amirlashkar yuritgan siyosatining faol ishtirokchisi bo'lgan. Muhammad Yunus Toib maslahati bilan XIX-asrning 60-yillari o'rtalarida Qo'qon xonligida Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Turkiya, Angliya va Rossiyaga elchiliklar uyushtirilgan. Toib Aliquli Amirlashkar bilan birgalikda Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent mudofaalarida faol ishtirok etgan, har bir jang harakatlari va

⁹⁸ Vohidov SH.H. O dvux redaktsiya sochineniya Avaz Muhammad Attara Xuqandi. Adabiy meros. 1989. 37-42- bb.

⁹⁹ Muhammad Y.T. Tarixi Amirlashkar Alimqul. Sharq yulduzi. 1996. 1-2- b.

¹⁰⁰ XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi 150- b.

xonlik ichki siyosatida Aliquli Amirlashkar tomonidan olib borilayotgan siyosatda unga yaqindan ko'mak bergan. Keyinchalik Muhammad Yunus Toib Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi « Tarixi Aliquli Amirlashkar» asarini yozadi. Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyati yoritilgan asarlar orasida «Tarixi Aliquli Amirlashkar» o'zining eng mukammaligi va ishonchligi bilan alohida o'rin egallaydi. Bu asar turli vaqtlarda Sh.Vohidov, R. Shamsutdinovlar tomonidan mustaqil tarzda hozirgi yozuvga o'girib o'rganilgan.¹⁰¹

Tarixchi Z. Ilhomovning yozishicha, ularning har ikkida ham tarjimada ayrim xatolarga yo'l qo'yilib, Aliqulining ismi «Alimqul» tarzida noto'g'ri ko'rsatilgan. Keyinchalik Sh.Vohidov bu fikrning noto'g'riligini e'tirof etib, Amirlashkarning ismi «Aliquli»emas,balki «Aliquli»ekanligini ta'kidlab o'tgan edi.¹⁰²

Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar»asari Aliquli Amirlashkar shaxsi va faoliyatini yoritib beruvchi tarjimayi hol tarzidagi asardir.Bu asarda yuqorida aytilgan ma'lumotlar bilan birga Qo'qon xonlari Mallaxon,Sulton Sayyidxon va boshqalar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Qo'qon xonligi tarixi va chor Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi tarixi masalalarini yoritib beruvchi manbalardan yana biri Mullo Holbek Ibn Mullo Muso Andijoniyning « Aliquli jangnomasi va Mullo Holbek sarguzashtlari»asaridir. Asar o'zbek tilida, arab alifbosining nasta'liq xatida yozilgan bo'lib, 75 varaqdan iborat. Asarning saqlanib qolgan nusxasi to'liq bo'lmay, uning oxiri varaqlari qo'lyozmadan tushib qolgan yoki yo'qolgan.

Mullo Holbekning asari Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Aliquli Amirlashkar va uning xarbiy yurishlari, uning Toshkent mudofaasida halok bo'lishi voqealarini bayon etadi. Shuningdek asarda chor hukumatining mustamlakachilik siyosati, turli jinoiy

¹⁰¹ Muhammad Y.T.Amirlashkar alimqul tarixi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi. O'zbekistonning yangi tarix markazi. T.1997. 12-54- bb.

¹⁰² Ilhomov Z. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni. Tarix fanlar nom.diss.....2004.

ishlari va mazlum xalqning azob-uqubatlari haqida aniq va ishonarli dalillar bilan yoritilishi asarning manbaviy qimmatini yanada oshiradi. Mullo Holbek chor hukmronligiga qarshi chiqib, axloqning buzilishi, Farg'ona ahlidan birlik, ittifoqning ketganligini sababchi deb biladi. Chor qo'shinlari bilan kurashlarda katta mahorat ko'rsatgan Aliquli Amirlashkar, Mingboy parvonachi kabi sarkardalarga yuqori baho berib, ular tarixda iz qoldirganligini ta'kidlab o'tadi. Bu asar Qo'qon xonligi tarixi, chor hukumati mustamlakachiligi siyosati tarixi hamda Aliquli Amirlashkar hayoti va faoliyatini o'rganishda muhim manba sanalishi shubhasiz.¹⁰³

Qo'qon xonligi tarixi haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi mukammal bitilgan manbalardan biri «Tarixi jadidi Toshkand» asaridir. Bu asar Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy qalamiga mansub bo'lib, xonlik tarixiga oid yirik manbalardan biridir. Asar arab alifbosining nasta'liq xatida o'zbek tilida yozilgan bo'lib, bir necha nusxasi mavjud.¹⁰⁴

Muhammad Solih Toshkandiy chor Rossiyasining Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlariga qarshi kurashlarda, xususan Toshkent mudofaasida eng faol ishtirok etgan tarixchilardan biridir. U bo'lib o'tgan jangler va to'qnashuvlar, ularda sodir bo'lgan voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va ularda bevosita ishtirok etgan. Shu jihatdan olganda «Tarixi jadidayi Toshkand» asari Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qildi.

Muhammad Solih Toshkandiy Toshkent mudofaasida olib brogan janglarni tasvirlar ekan, eng mayda tafsilotlargacha ma'lumot berib o'tadi. Ayniqsa, Toshkent shaxriga yetib kelgan Qo'qon lashkarlarining xalq tomonidan katta umid va ishonch bilan kutib olinganligi, mudofaada shaharning barcha aholisi faol ishtirok etganligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. Qo'qon sarkardasi Aliqulining jangdagi ishtiroki va halok bo'lishi tafsilotlarini turli guvohlarning ko'rsatmalari asosida aynan tasvirlabnayotganligiga alohida urg'u

¹⁰³ Vohidov SH.H. XIX-asr ikkinchi yarmi –XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari dok. diss. T.1998. 207- b.

¹⁰⁴ O'sha joyda. 219- b.

beri o'tadi va bu ma'lumotlarning eng to'liq tafsilotlari ham aynan Muhammad Solih Toshkandiy asarida uchraydi.

« Tarixi jadidayi Toshkand»asridan bir qator tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida foydalanganlar, Sh. Vohidov, Z.Ilhomov, ayniqsa H.Z.Ziyoyev o'z asarlarida bu manbadan nihoyatda keng foydalanganligi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlarni o'z o'rnida keltirib o'tgan.¹⁰⁵

XIX-asr ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi tarixi haqida yozilgan manbalardan yana biri Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shoxruhiy» asaridir. Muhammad Niyoz Ho'qandiy saroy amaladorlari safiga kirganligi uchun Sheralixon hukmronligidan XIX-asrning 70-yillarigacha yuz bergan siyosiy jaroyonlarda bevosita ishtorok etgan. Muallif o'z asarida xonlik ichki siyosiy hayotining barcha tomonlarini atroflicha yoritish bilan birga , xonlarning tashqi siyosatiga munosabati, harbiy ahvolning yomonligi va achinarlisi, harbiy ahvolning shunday qolib ketganligi, hattoki chor Rossiyasining dastlabki harbiy yurishlarida xonlik askarlarining mag'lubiyatga uchrashi va shaharning qo'ldan boy berilishini xonlarning beparvoligi oqibatida edi, deya baholaydi.¹⁰⁶

Shuningdek asarda Xudoyarxon va Mallaxon davri siyosiy guruhbozlikning kuchayishi, bundan avvalroq yuz bergan qipchoqlar voqealari ham batafsil yoritib berilgan.

«Tarixi Shoxruhiy» asari XIX-asr oxirlaridayoq tarixchilar tomonidan tadqiqot obekti sifatida o'rganila boshlangan asarlardan biri sanaladi. Rus tarixchisi N.N.Pantunsov 1876-yildayoq asarning rus tilidagi tarjimalarini nashr qildira boshlagan bo'lsa, 1885-yilda uning to'liq nusxasini rus tilidagi tarjima va izohlar bilan nashr qildirdi.¹⁰⁷ Shuningdek, T.K.Beysembiyev ham «Tarixi

¹⁰⁵ Ziyoyev H.Z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.Sharq.1998. 101-195-bb

¹⁰⁶ Beysembiyev T.K. Tarixi Shoxruxi kak istoricheskiy istochnik. Almata. Nauk.1987. 199-200-bb.

¹⁰⁷ Patunsov N.N.Tevarixi Shaxruxiye. Turkestanskiy vedomosti. 1876.30-b.

Shoxruhiy»asarini chuqur o'rganib, unda yozilgan ma'lumotlar asosida Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston tarixiga oid bir qator masalalarni tadqiq etgan.¹⁰⁸

Qo'qon xonligi tarixi va chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi tarixini yoritib beruvchi mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan ayrim qo'lyozma manbalarning bugungi kunga kelib bironta ham nusxalari saqlanib qolmagan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat kutubxonasida N.I.Veselovskiy tomonidan yozilgan «Kirgizskiy rasskaz o russkix zavoevaniyax v Turkestanskom krae» asari saqlanadi.¹⁰⁹

Bu asar aslida Mullo Holiboy Mambetov qalamiga mansub bo'lib, «O'rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282 sanalarda qilg'on futuxotlari» deb nomlanadi. Bu asar Toshkentlik savdogar va tarix ixlosmandi Akram Asqarov iltimosiga ko'ra yozilib, keyinchalik N.I.Veselovskiyga tuhfa etilgan va olim tomonidan rus tilidagi tarjima va izohlar bilan nashrdan chiqarilgan.

Oqjar volostining Chorbuloq ovulida 1856-yilda tug'ilgan va qozoqlarning Shanishqli urug'idan bo'lgan Mullo Holiboyning otasi Qo'qon xonligi qo'shinlarining, asosan Aliquli Amirlashkar qo'shinida alambardor lavozimida bo'lib, Oqmasjidning bosib olinishidan Toshkent mudofaasigacha bo'lib o'tgan janglarda ishtirok etgan. Keyinchalik uning aytib bergan tafsilotlari asosida Mullo Holiboy o'z asarini yozib qoldirgan.

Kitobning N.I.Veselovskiy tomonidan chop etilgan nashrida rus tilidagi tarjima va izohlar bilan birga, arab alifbosidagi qo'lyozma variant ham to'liq berilgan va uning umumiy xajmi har biri 16 satrdan iborat 105 betni tashkil etadi. Asar asosan she'riy yo'l bilan yozilgan.

Mullo Holiboy o'z asarini Oqmasjid beegi Yoqubbekning chor qo'shinlariga qarshi mudofaa kurashlari tafsilotlaridan boshlaydi. Asarda Qo'qon xonlarining bosqinchilarga qarshi kurashlarda tutgan choralari, har bir shahar va qal'a uchun olib borilgan janglar, har bir jangni boshqarib brogan sarkardalar va ularning faoliyatlari, Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent shaharlarining chor

¹⁰⁸ Beysembiyev T.K. Tarixi Shoxruxi kak istoricheskiy istochnik. Almata. Nauka. 1987. 200-b.

¹⁰⁹ Kirgizskiy rasskaz o russkix zavoevaniyax v Turkestanskom krae, perevod I orolejnya. 1894. Qarang: Ilhomov Z. Turkiston bosqini. T. 2009.

qo'shinlari tomonidan bosib olinishi voqealarning keng sharhlab berishga harakat qiladi. U o'z asarida Mullo Aliquli Amirlashkar va uning faoliyatiga yuqori baho beradi. Ayniqsa, Amirlashkarning jang qilish uslublari, harbiy islohotlarni amalga oshirish yo'lidagi say-harakatlari, Iqon jangidagi muvaffaqiyati va Toshkent mudofaasidagi olib borgan janglarini to'liq yoritib beradi. Asarning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, unda boshqa manbalarda mutlaqo uchramaydigan Aliquli Amirlashkarning o'limi oldidan Toshkent mudofaachilarga qilgan vasiyatlari ham o'rin olgan.¹¹⁰

Asl qo'lyozma nusxasi yo'qolib ketgan yana bir shunday asar Muhammad Yunus Toshkandiyga tegishli. U asli Toshkentlik bo'lib, ancha o'qimishli odam bo'lgan. Keyinchalik esa Qo'qon xonligi saroyida mirzo, zakotchi lavozimlarida ishlagan. U saroydagi xizmati davomida siyosiy hayotda ro'y berayotgan juda ko'p voqealarga guvoh bo'lgan. Muhammad Yunus Toshkandiy o'zining ko'rgan kechirganlari va eshitganlariga hamda avval yozilgan kitoblarga asoslanib, Qo'qon xonligining 1805-1865-yillarga taaluqli tarixini yozib qoldirgan. Bunda u Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronligi davriga qisman to'xtalib o'tadi. Asarning asosiy mazmuni esa Aliquli Amirlashkarning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan.

Muhammad Yunus Toshkandiyning ushbu asari yo'qolib ketgan bo'lsada, rus olimi Y.T.Smirnovning «Sultani Kenisara I Sadiq» asarida keltirilgan.¹¹¹

Y.T.Smirnov chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini mustamlaka aylantirilishi masalalari bilan shug'ullanar ekan, bunga mahalliy tarixchilarning munosabatlarini bilishga harakat qiladi. Shu maqsadda olim tomonidan to'plangan bir qator ma'lumotlar yuqorida nomi keltirilgan asarga ilova tarzida kiritiladi. Shu joydan o'rin olgan Muhammad Yunus Toshkandiyning asari nomlanganligi uchun mazkur manbani tadqiq qilgan va ilmiy muomalaga kiritgan Z.Ilhomov tomonidan asar shartli ravishda «Mullo Yunus Toshkandiy xotiralari» deb nomlangan.¹¹²

¹¹⁰ O'rus lashkarining Turkistonda tarixi 1269-1282 sanalarda qilg'on futuhotlari. 2000. 4-5-bb.

¹¹¹ Smirnov Y.T.Sultani Kenisara I Sadiq. S.I.Laxtina.1889.

¹¹² Ilhomov Z. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni. Tarix fanlar nom. diss..... T. 2004.

Muhammad Yunus Toshkandiy o'z xotiralarida keltirilgan ma'lumotlar Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni to'ldirib keladi va o'ziga xos yaxlitlikni yuzaga keltiradi.

Shunday asarlardan yana biri muallifi noma'lum «Mirot ul-futux» «G'alabalar ko'zgusi» asaridir. Bu asarning hozirda qo'lyozma nusxasi ham, undan foydalanib yozilgan boshqa nusxalari ham yo'q. R.N.Nabiyev o'z asarida A.A.Semyonovda mavjud nusxasini o'z ko'zi bilan ko'rganligi va undan ayrim ma'lumotlarni olganligini yozib qoldiradi.¹¹³

Qo'qon xonligining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga qarshi kurashlari tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berishi mumkin bo'lgan ushbu asarni topib o'rganishning imkoni bo'lmaganligi manbashunos olim SH.H.Vohidov ham o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tgan.¹¹⁴

XIX-asr ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati eng avjiga chiqqan bir vaqtda vaziyatga moslashuvi, hukmron mafkura manfaatlari nuqtai-nazarini ifadolovchi mualliflar tomonidan ayrim asarlar ham yaratilganki, bularda asl voqelikdan chetga chiqish, voqealar tafsilotlari hamda tarixiy shaxslar faoliyatlarining mohiyatini noto'g'ri talqin qilish hollari uchraydi. Tarixchilarning bunday yo'l tutishlariga XX-asr boshlariga kelib ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha sohalarida mustahkam hukmronligini o'rnatgan chor hukumatining senzurasini sabab bo'lgan bo'lishi sir emas. Ular tomonidan yaratilgan asarlar avvalgi manbalar asosida yozilgan bo'lishiga qaramasdan, ayrim ma'lumotlarning noto'g'ri yoki buzib talqin qilish hollari uchraydi. Masalan, Is'hoqxon Ibrat Mallaxonin o'ldirilishi voqealariga to'xtalib, «1278 hijriyda vazirlari Mullo Olimquli va Olimbek qirg'izlari va necha inoqlar qo'lida Mallaxon o'ldirildi. Bu ishda Mullo Aliquli bosh ekan», -deya baho beradi.¹¹⁵

¹¹³ Nabiyev R. Iz istorii Kokakdskogo xanstva. T. Fan. 1974. 12-b.

¹¹⁴ Vohidov Sh. H. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari dok. diss. T. 1998. 233-b.

¹¹⁵ Ibrat. Farg'ona tarixi. T. Meros. 1991. 32-b.

Boshqa manbalarda esa Aliquli Amirlashkarning bu ishga aloqasi bo'lmaganligini va aksincha u fitnachilarni jazolaganligi ko'rsatiladi.

Yana bir muallif- Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul xavoqin» asari Qo'qon xonligi tarixining tashkil topishidan so'nggi kunlarigacha bo'lgan tarixiy voqealarni yoritishda muhom o'rin tutadi.¹¹⁶

Bu asarda XIX-asrning 50-60-yillarida sodir bo'lgan siyosiy voqealar tahliliga katta o'rin beriladi. Xudoyarxon, Mallaxon, Shohmurod, Sulton Sayyidxonlarning taxtda o'tirgan vaqtlarida yuritgan siyosatlari, shu vaqtda xonlikdagi umumiy ahvolni yoritishga katta o'rin beradi. Mirzo Olim Mushrif asarida ham ayrim ma'lumotlarda noaniqliklar ko'zga tashlanadi.

Bunday holatni Mullo Olim Mahdumxojaning «Tarixi Turkiston» asarida ham uchratish mumkun. «Tarixi Turkiston» asari Mullo Olim Mahdumxoja tomonidan yozilgan Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan tarixiy asar bo'lib, uning bugungi kunda toshbosma nusxasi saqlanib qolgan.¹¹⁷

Mullo Olim Mahdumxoja yashagan davr va asarning yozilishi vaqti asarda keltirilgan voqealardan ancha keyin bo'lganligi uchun hamda chor hukumatining mahalliy tarix asarlariga senzura oqibatida ayrim hollarda voqealarning buzilgan talqini uchraydi.

Shulardan ko'rinib turibdiki, manbalarda tarixiy voqelikka bo'lgan munosabat turlicha va bu manbalarning asosiy xususiyatlarini, tarixiy zamonning ta'siri va mualliflarning qarashlaridan kelib chiqqan holda har bir manbaning murakkab xarakterga ega ekanligini anglatadi. Mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar orasida Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» va Muhammad Yunus Toshkandiyning xotiralari, Mullo Xoliboy Mambetovning «O'rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282-yillarda qilg'on futohotlari» asarlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bu asarlar biografik ruhda yozilganligi bilan birga ular Rossiya imperiyasi bosqinchilarga qarshi kurashgan va xonlikning siyosiy boshqaruvida ishtirok etgan odamlar tomonidan yozilganligi

¹¹⁶ Mirzo Olim Mushrif. Qo'qon xonligi tarixi. T.1995. 46-b.

¹¹⁷ Tarixi Turkiston..65-b.

uchun voqealar tafsilotiga nisbatan haqqoniyroq baho berilgan. Shu bilan birga ushbu manbalarda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va harbiy sohalar tarixi o'sha davr sharoitiga asosan yoritib berilgan.¹¹⁸

Qo'qon xonligi tarixini faqatgina yuqorida keltirilgan mahalliy tarixchilar asarlari asosidagina yoritilsa, bir yoqlamalikka yo'l qo'yilishi tabiiy. Mahalliy manbalar bilan birgalikda arxiv hujjatlari ham xonlik tarixini o'rganishda muhim va zarur manbalar bo'lib xizmat qiladi va ularni o'rganmay turib, xonlikning so'nggi davrlari tarixini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

Keyingi yillarda chop etilgan Ibrtaning «Farg'ona tarixi», Mullo Olim Maxdumxojaning «Tarixi Turkiston», Mirzo Olim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin», Muahammad Azia Marg'iloniyning «Tarixi Aziziy», «Sharq Yulduzi» oynomasida nashr ettirilgan Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi» va Muhammad Yunus Toib qalamiga mansub «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asarlari manbalarga bo'lgan e'tiborning sezilarli ravishda o'sganligi va ularning ilmiy izlanishlarning asosiy manbalari sifatida katta o'rin tutayotganligini ko'rsatib turibdi. Biroq, faqat bu asarlar bilan kifoyalanib, Qo'qon xonligi tarixini chuqur o'rganib bo'lmaydi, albatta. Bu esa o'z-o'zidan manbashunoslar oldida ulkan vazifalar turganligini, tarixning o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan qirralariga yanada ko'proq e'tibor berish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki Qo'qon xonligida yaratilgan tarixiy asarlar o'zining qimmatli malumotlarim bilan ajralib turadi. Qo'qon xonligida yaratilgan tarixiy asarlar xonlikning tarixi iqtisodi –siyosiy jihatdan mustahkamligi qaysi hukmdor davrida gullab yashnaganligi bayon etilgan.

¹¹⁸ Vohidov Sh.H. XIX-asr ikkinchi yarmi-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida Tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix fanlari dok. diss.... T.1998. 234-247-b.

3-bob Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik mavzusi bo'yicha ta'lim texnologiyalari

Dars va uni tashkil etish haqida. Dars- o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalaniladi..

Mavzu: Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik mavzusini o'qitishning dars ishlanmasi va ta'lim texnologiyalari. tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilm-xil metodlardan foydalanadi

Mashg'ulot vaqti: 80 daqiqa	O'quvchilar soni: 30 tagacha
Mashg'ulot shakli	Aralash dars
Ma'ruza rejasi	1. Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorif 2. Xonlikda musiqa –qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati 3. Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi 4. Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari 5. Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarga Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislikka oid ma'lumotlarni yoritib berish	
Pedagogik vazifalar: 1.Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorif haqida ma'lumot berish 2.Xonlikda musiqa –qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'atini yoritib berih 3.Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi haqida ma'lumot berish 4.Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari haqida ma'lumot berish 5.Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishi ma'lumot berish	O'quv faoliyati natijalari: Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorifning asosiy jihatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar 1. Xonlikda musiqa –qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'atini bilib oladilar 2. Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar 3. Xiva xonligi xududi va aholisi, xo'jalik hayotining asosiy jihatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar 4. Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali, ma'lumotli ma'ruza, jamoada ishlash, klaster va boshqalar.
Ta'lim berish shakllari	Ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash.
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, tarqatma material, doska, proyektor, xarita.
Ta'lim berish sharoiti	Hamkorlikda ishlash, auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat-savol javob, yozma nazorat.

Qo'qon xonligida madaniy hayot va tarixnavislik mavzusidagi dars mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Ekranga mavzuning nomi va rejalarini tushiradi. Mavzuda uchraydigan asosiy atama va tushunchalar haqida ma'lumot beradi. 1.2. O'tilishi kutilayotgan dars mashg'uloti muloqot tarzida bo'lishi ta'kidlanadi. 1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida mavzuga aloqador savollar beradi (1-ilova)	Yozib oladilar Tinglaydilar Belgilab oladilar savollarga javob beradilar.
Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Mavzuning birinchi rejasini o'quvchilarga tushuntirib beradi. (2-ilova) 2.2. Mavzuning ikkinchi rejasini o'quvchilarga tushuntirib beradi. (3-ilova) 2.3. Mavzuning uchinchi rejasini o'quvchilarga tushuntirib beradi. (4-ilova) 2.4. Mavzuning uchinchi rejasini o'quvchilarga tushuntirib beradi. (5-ilova) 2.5. Mavzuning uchinchi rejasini o'quvchilarga tushuntirib beradi. (6-ilova) 2.5. Talabalarga mavzuning asosiy jihatlari takrorlanadi.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Savollar berishlari va fikr bildirishlari mumkin
Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu umumlashtiriladi va umumiy xulosa qilinadi. O'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savollar berilib, yangi mavzu mustahkamlanadi. (7-ilova) 3.2. Mavzu yuzasidan o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan atama va tushunchalarga qisqacha izoh beradi. 3.3. O'quvchilarni guruhlariga bo'lgan holda pedagogik texnologiyalar yordamida o'tilgan mavzu mustahkamlanadi. (8-ilova) 3.4. Uyga vazifa: Mavzu yuzasidan berilgan atamalarga javob berish.	Savollar beradilar va savol-javoblarda faol qatnashadilar Savol beradilar Topshiriqlarna bajarishda faol qatnashadilar Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Faollashtirish uchun savollar:

- 1.Q o'qon xonligi qay tariqa tashkil topgan?
- 2.Qo'qon xonlaridan kimlarni bilasiz?
- 3.Xonlikka qaysi sulola asos solgan?
- 4.Xonlik hududi tarkibiga qayerlar kirgan?

Qo'qon xonligida madaniy hayotining umumiy tavsifi va maorif

O'rta Osiyoda XVIII-asr davomida yuz bergan siyosiy parokandalik natijasida Buxoro xonligi parchalandi va undan asosiy hududlari Farg'ona vodiysini egallagan Qo'qon xonligi ajralib chiqdi va natijada O'rta Osiyo uch xonlikka – Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Har bir xonlik tepasida turgan hukmdor o'z mustaqil davlatining istiqbolini mustahkamlash va istiqboli uchun faoliyatini kuchaytirishga harakat qildi. Jumladan, mamalakatning moddiy va manaviy madaniyatini rivojiga alohida ahamiyat berish lozimligi ayon edi. Madaniyat uning tarkibiy qismi bo'lgan san'atning barcha turlari sohasida salmoqli siljishlar, o'sishlar ro'y berdi, uning taniqli namoyondalari yetishib chiqdi. Bu davrda hunarmandchilik nafaqat yirik shaharlarda, balki qishloq joylarda ham o'ziga xos yo'nalishda bordi. Aynan shu davrda vujudga kelgan dostonchilik-baxshichilik keying asrlardagi yuksalishiga va hozirgi rivojiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

XIX-asr boshlarida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti ham xonlikning madaniy hayotida katta o'rin tutgan. Qo'qon hukmdorlarning qator namoyondalari temuriylar an'anasini davom ettirib, o'zlari ham ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib bu sohani ravnaq topdirishga katta sa'y-harakat qilganlar. Ayniqsa, bunda Qo'qon xonlaridan Umarxon va Muhammad Alixon davrlari yaqqol ajralib turadi.

XIX-asr boshlarida Qo'qon xonligida boshlangan ilmiy, madaniy-adabiy muhitning shakllanishida va rivojlanishida bevosita xonlikdagi maktab va madrasalarning o'rni beqiyosdir. Bu ilm o'choqlari xalqni ma'rifatli qilish, an'anaviy ta'limni va madaniy- ma'naviy hayotni yuksaltirishda katta ro'l o'ynagan. Qo'qon xonligida ham ko'plab maktabxona va madrasal bo'lib ulardagi o'qitish xarajatlari ota-onalar zimmasiga tushgan. Maktabxonalarda bolalar bo'yra yoki sholcha ustida o'tirib o'qishgan, shahardagi har bir maktabxonalrda 10 tadan

30 tagacha bolalar o'qigan, qishloq maktablarida esa undan oz bo'lgan. Odatda maktablarda asosan o'qish va yozish arifmetika va adabiyot o'qitilar edi.

3-ilova

Xonlikda musiqa – qo'shiqchilik va teatr, xattotlik, askiyachilik va dorbozlik san'ati.

XVIII-asr oxirlari XIX-asr birinchi yarmida o'zbek xonliklarida ma'naviy madaniyatning barcha sohalari kabi tasviriy san'at, musiqa-qo'shiqchilik, xattotlik, miniatura rassomchiligida ham muhim siljishlar ro'y berdi. Yuqoridagi mavzularda bayon etilganidek, bu san'at turlari o'z maromida yuksala bordi. Shuni ham e'tirof etish lozimki, bu davrda manaviy madaniyatini yuksakishi bobida Temuriylar homiylik an'anasini, ayniqsa Nodirabegim, Muhammad Rahimxon (Feruz), Amir Olimxon kabi shoh hukmdorlar o'z mamlakatlarida takrorlashga harakat qildilar. Biroq, o'sha davrda sodir bo'layotgan o'zaro urush va taxt talashishlar natijasida xonlarning tez-tez almashinib turishidan fan va madaniyat uzviy rivojlanishi imkoniga ega bo'lmaydi.

XIX-asr oxirida yashagan Farg'onalik ashulachi va sozandalarning ko'pchiligi serqirra san'atkor bo'lishgan. Bir kishining o'zi ikki-uch cholg'u sozida chalishni puxta egallagan sozanda, bastakor, xofiz, qiziqchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ba'zilar o'zlari uchun doimiy kerak bo'lgan cholg'u sozlarini yasash hunaridan ham xabardor bo'lganlar. Ularning noyob iste'dodi yana shu jihatdan qadrligi, ular nota yozuvlarisiz qanchadan-qancha xalq musiqa boyliklarini, shashmaqomlarni yodaki o'rganganlar va esda saqlab qolib, o'z navbatida shogirdlariga o'tqazganlar. Farg'ona vodiysida xalq professional musiqasi janriga kiruvchi «Shoshmaqom» ning Farg'ona-Toshkent yo'llari va ayniqsa katta ashula keng tarqalgan. O'tgan ajdodlarimiz ijodiga mansub, bir necha yuz yillik tarixga ega bo'lgan maqom va shashmaqom san'ati musiqa-qo'shiqchiligimizning bebaho va betakror gultojisi hisoblanadi.

Xonlikda me'morchilik va xalq amaliy san'atining taraqqiy etishi.

Bu davrda o'zbek xonliklarida moddiy madaniyat sohasidagi muammolarga e'tibor ancha susaygan bo'lsada, har uchala xonlikda o'ziga xos me'morchilik maktabi shakllangan edi. Me'morchilikka e'tibor kuchaygan sari yangi-yangi muhtasham binolar, saroylar bunyod etildi. Xonlikning markazi Qo'qon shahrida Marg'ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar qurildi. Binolarni bezatish uchun gul namunalari keng qo'llanib, shiftlarga bo'yoqli naqshlar chizish, naqshlarni o'yib solish o'sha davrning o'ziga xos xususiyatlari hisoblangan.

Shuningdek, yog'och va misga o'yib nozik naqshlar solish ham keng tarqalgan. Qo'qon me'morchilik maktabidagi uslub Xo'ja Amin maqbarasi (XVIII- asrning 50 yillari), Norbo'tabiy madrasasi (XVIII- asr oxirlari), Dahmai Shohon va Modarixon dahmalari (1825), Norbo'tabiy va uning avlodlari maqbaralari (XVIII- asr 2-yarmi), Xudayarxon o'rdasi (1871), Andijon Jome masjid madrasasi (XIX- asr oxiri) va boshqalarda mujassam topgan.

Me'morchilik- shaharsozlikning asosi hisoblanadi. Me'morchilik asarlari qatoriga turli-tuman katta-kichik binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, turli monumental qurilishlar, usti ochiq va yopiq turli soha, yo'nalish, kasblarga mo'ljallangan inshootlar kiradi. Ayni vaqtda me'morchilik ijodi va mehnati o'ziga turli xil san'at namunalarini ham mujassam etadi. Qadimgi dunyo tarixida mashhur bo'lgan «Yetti mo'jizasi»ning barchasi ham inson dahosi bilan yaratilgan me'moriy san'at asarlari bo'lgani bejiz emas.

Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari

Qo'qon xonligi tarixi eng avvalo shu yerlik tarixnavislarning asarlarida o'z aksini topgan. XIX-asr va XX-asr boshlarida saroy tarixchilar hamda saroyda yashamagan muarrixlar yaratgan qator tarixiy va adabiy asarlarda Qo'qon xonligining tashkil topishi. U yerda hukmronlik qilgan xonlarning faoliyati, xonlikdagi siyosiy ahvol, xo'jalik va madaniy hayot bayon qilingan. Mahalliy

tarixnavislarning asarlari xonlik tarixini o'rganishda birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy manbalar hisoblanadi.

Qo'qon tarixnavislarining asarlari o'z janr va uslublari jihatidan O'rta Osiyo va sharq tarixnavislik an'analari asosida yaratilgan. Malumki, musulmon tarixshunoslik konsepsiyasi, shu jumladan Qo'qon xonligi muarrixlari ilgari surgan konsepsiyalar Qur'on Karim, hadislar va agiografik (diniy yo'nalishdagi tarjimayi hol) adabiyotlarga asoslanadi. Sharq mamlakatlari va Qo'qon xonligida tarixiy tafakkur kosmogonik (dunyoning kelib chiqishi), kosmologik (koinotning tuzilishi), teologik (diniy ta'limot), sotsiologik va esxatologik (dunyoning oxiri-qiyomat-qoyim) ta'limotlarga asoslanadi. Olamning yaratilishi, ilk odamning paydo bo'lishi, turli qabila va xalqlarning kelib chiqishi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash kabi masalalar ularning asarlarida muhim o'rin tutadi.

Qo'qon tarixnavislari asarlarini asosan ikki guruhga bo'lish mumkin: 1 tarixiy-adabiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar bayoni birinchi o'rinda turadi; 2 adabiy-tarixiy asarlar. Bu asarlarda tarixiy voqealar sabablariga asosiy e'tibor qaratiladi. Mahalliy tarixnavislarning Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlari asosan o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan.

Tarixiy asarlarni qaysi tilda yozilganiga qarab arab, fors-tojik va turkey guruhlarga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'z navbatida umumiy tarixga bag'ishlangan yoki alohida mamlakatlar tarixiga taalluqli asarlarga bo'linadi.

6-ilova

Tarixnavislik maktabida yaratilgan asarlarda xonlik tarixini yoritilishi.

Qo'qon xonligida tarixnavislikning shakllanishi va uning o'ziga xos maktab darajasida rivojlanishi, xonlikning ichki va tashqi siyosiy hayoti, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni yoritib beruvchi jihatlari bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixnavisligidan ancha farq qilib, asosiy farqi eng avvalo manbalar sonining ko'pligi, tarixnavislarning tarix kitoblarini yaratishdagi sermahsulligi, voqealarni anchayin batafsil va mukkamal darajada yoritib bera olishida ko'rinadi. Shuningdek, Qo'qon xonligi tarixnavisligida tarixiy shaxslar (Xudayarxon, Aliquli

Amirlashkar, Mullo Xolbek va boshqalar) hayotini aks ettiruvchi biografik mazmundagi asarlar, tashqi va ichki dushmanlar bilan olib borilgan To'qnashuvlar jarayonlarini ochib beruvchi jangnomalar (Zafarnomayi Xudoyorxoniy,» O'rus lashkarining Turkistonda tarix 1269-1282-yillarda qilg'on futuxotlari») kabi asarlar ham mavjudki, bunday asarlarni Buxoro yoki Xiva tarixnavisligida uchratmaymiz.

Mullo Avaz Muhammad ibn Mullo Ro'zi Muhammad So'fi- Avaz Muhammad Attor Xo'qandiyning « Tarixi jahonnamoyi» asari ikki jildidan iborat bo'lib, tojik tilida, arab alifbosining nasta'liq xatida yozilgan. Bunday asarlar qatoriga Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar»asarini ham kiritish mumkin. Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar» asari 196 bet (98 varaq) dan iborat bo'lib, o'zbek tilida , arab alifbosining nasta'liq xatida nasriy usulda yozilgan asardir.

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki Qo'qon xonligida yaratilga tarixiy asarlar o'zining qimmatli malumotlarim bilan ajralib turadi. Qo'qon xonligida yaratilgan tarixiy asarlar xonlikning tarixi iqtisodi –siyosiy jihatdan mustahkamligi qaysi hukmdor davrida gullab yashnaganligi bayon etilgan. Bu kitob hozirgi kunda Milliy arxivda saqlanadi.

7-ilova

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:


1. Qo'qon xonligida madaniy hayot qanday edi?
2. Xonlikda maorifning rivojlanishiga turtki bo'lgan omillar?
3. Qo'qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
4. Qo'qon xonligida tarixiy asarlarning yartilish sabablari

Yangi o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda tavsiya etiladigan texnologiyalar.

“T” jadvali asosida Qo‘qon xonligi madaniy hayoti va tarixnavislikning asosiy jihatlarini ko‘rsatib berish

O‘ZLASHTIRILISHI KERAK		O‘ZLASHTIRDIM
Qo‘qon xonligida madaniy hayot		
Xonlikda maorifning rivojlanishiga turtki bo‘lgan omillar		
Qo‘qon tarixnavislik maktabi xususiyatlari		
Qo‘qon xonligida tarixiy asarlarning yartilish		

Insert jadvali




Insert jadvali

V	+	-	?

Klaster

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

Klasterni tuzish qoidasi



Xulosa

Madaniy hayot insonlarning muhim ijtimoiy munosabatlar sohasini tashkil qiladi. Madaniyatga oid boyliklar asrlar davomida yig'ilib har bir avlod tomonidan qayta ishlanib, to'ldirilib ommaviy ko'rinishda yashab keladi. O'zbek xalqi-Markaziy Osiyoda eng boy va qadimiy madaniy merosga ega hisoblanadi. Hozirgi avlodga meros sifatida o'nlab madaniyat va ma'naviyat markazlari minglab falsafiy adabiy dunyoviy va ilmiy asarlar qoldirganlar. Mustaqillikka erishguncha madaniyatimiz birinchidan hukmron mafkura va istibdod tuzumi tazyiqida G'arb madaniyatiga tahlil ruhida rivojlandi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonlarida Bitiruv malakaviy ishida Qo'qon xonligida madaniy hayot tahlilini amalga oshirish asosiy maqsad sifatida qoyilgan edi. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi jarayonida qo'lga kiritilgan natijalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Qo'qon adabiy muhit vakillari orasidan umuminsonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalarini tinmay targ'ib etgan, zamonning mudhish zulmlaridan fig'on qilgan Nodira, Dilshod, Zebuniso va boshqa shoiru-shoiralar yetishib chiqdi. Ular o'z asarlari orqali muhabbat, adolat va yaxshilikning g'alaba qozonishiga ishonch tuyg'ularini targ'ib qildilar. Bu adabiy merosdan xalqimiz bugungi kunda bahramand bo'lmoqda.

Ikkinchidan, XIX-asrda Qo'qon xonligida maorif ancha yuksalgan. Diniy boshlang'ich ta'lim beruvchi maktab hamda o'rta va oliy ta'lim beruvchi madrasalarda asosan o'g'il bolalar o'qigan. Madrasa talabalari uch bosqichda o'qishgan.

Uchinchidan, Madaniy hayotda amaliy san'atining qo'shiqchilik, dorbozlik, qo'g'irchoq oyinlari aktiyorlik, askiyachilik, teatr musiqa-qo'shiqchilik kabi turlari muhim o'rin egalladi.

To‘rtinchidan, Qo‘qon va Toshkentda xattotlik maktablari taraqqiy etib, uning madaniy hayotda tutgan o‘rni beqiyosdir. Qo‘qon xattotlarining o‘z uslublari mavjud bo‘lib boshqa shahar har xattotlaridan ajralib turar edi.

Beshinchidan, Xonlikda me‘morchilikka alohida e‘tibor berilgan. Bu yerda ko‘plab masjid va madrasa, xonaqoh, qorixona, maktab barpo etilgan. Ulardan ba‘zilari bizgacha yetib kelgan. Ular xonliklar davri me‘morchiligining yorqin durdonasidir. Me‘morchilik sohasida ham madrasalar bezagi alohida ajralib turadi.

Oltinchidan, xalq amaliy san‘atining yog‘och va mis oymakorligi, xilma xil mato to‘qish, zargarlik, miskarlik, duradgorlik, to‘quvchilik, kandakorlik, kulolchilik va boshqa turlari ham rivojlandi.

Yettinchidan, Qo‘qon xonligining adabiy muhitida yuzaga kelib shakllangan va rivojlangan tarixnavislik maktabi shu hududlarda ``yashagan jamiyatning man‘aviy hayorida katta o‘rin egallaydi. Qo‘qon tarixchilari o‘z asarlarida yillar davomida insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotlarini aks ettirgan. Qo‘qon xonligida ma‘naviy va madaniy hayot ham jonlanib qimmatli asarlar yaratildi. Qo‘qon adabiy muhitida aynan shu davrda birinchi tarixiy asarlar yaratildi, tarix fani va tarixnavislikka bo‘lgan an‘anaviy munosabat ham yangi sharoitda qayta uyg‘onib rivojlandi.

Umumiy xulosa sifatida aytib o‘tish mumkinki, Qo‘qon xonligida yuzaga kelgan adabiy muhitning ta‘sirida O‘rta Osiyoning an‘naviy madaniy hayoti sohalarning barcha jabhalari ma‘lum bir vaqt oralig‘ida o‘z yuksalishini boshdan kechirdi. Bu davrda O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatiga xos bo‘lgan adabiyot, me‘morchilik, tarixnavislik, xalq amaliy san‘ati sohalari va boshqa bir qator sohalarning rivojlanishi natijasida bunyoda etilgan va dunyo yuzini ko‘rgan ma‘naviy va moddiy madaniyat namunalari bugungi kunda o‘zbek xalqining bebaho ma‘naviy merosining salmoqli bir qismini tashkil etmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.
2. Karimov I.A.O'zbekiston Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.- Toshkent: O'zbekiston, 1996 yil.
3. Karimov I.A.Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-Toshkent: O'zbekiston, 1996 yil.
4. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998 yil.
5. Karimov I.A.Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2000 yil.
6. Karimov I.A.Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi.-Toshkent: O'zbekiston, 2005 yil.
7. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Manaviyat, 2008 yil.

2. Adabiyotlar.

1. Agzamova G.A. So'nggi o'rta asarlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo,- Toshkent: O'zbekiston. 2000 yil
2. Ahmedov B.R. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Toshkent. 2001 yil.
3. Atayeva A. Madrasalar tarixiga bir nazar,- Moziydan sado. 2008 yil.
4. Alixo'jayev M.O. Qo'qon madaniyati tarixidan. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Toshkent. 2004 yil.
5. Alixo'jayev M.O. Qo'qon xonligida vaqf yerlaridan foydalanish jamiyat va boshqaruv.-Toshkent. 2010 yil.
6. Arslonzoda R. Qo'qon xonligi tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi.- Farg'ona. 2010 yil.
7. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari,-Toshkent: Gafur G'ulom, 1987 yil.

8. Bobobekov H. Qo'qon tarixi.-Toshkent: Fan, 1996 yil.
9. Bobobekov H.H. Po'latxon qo'zg'oloni-Toshkent. 1996 yil.
9. Beysembiyev T.K. Тарихи Шохрух как исторический источник, – Алмата: Наука. 1987 год.
10. Ilhomov Z. Turkiston bosqini. Toshkent. 2003 yil.
11. Ilhomov I. Yakobjanov Y. Qo'qonga sayohat qilgan rus olimi, ТДПУ имени Низами. 2008 год.
12. Ilhomov Z.A Qo'qon xonligi tarixshunosligining ayrim masalalari,- Toshkent. 2007 yil.
13. Ismoilova D. Qo'qon me'moriy yodgorliklar: Qo'qon asrlar silsilasida Respublika ilmiy anjuman materiallari,- Qo'qon. 2004 yil 14-may.
14. Ismoilova Y. XIX-XX asrlar Marg'ilon liboslari. Moziydan sado. 2007 yil.
15. Ismoilova J. XIX asr oxiri-X asr boshlarida Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarida: Respublika ilmiy anjuman materiallari. 2007 yil.
16. Ishanov S.X. Каталог монет Коканд XVIII-XIX вв. Ташкент: Фан. 1970 год.
17. Karimov SH. Shamsuddinov R. Ubaydullayev O'. Vatan tarixi,- Toshkent: Sharq. 2003 yil.
18. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi,-Toshkent. 2007 yil.
19. Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar, - Toshkent: Fan. 2009 yil.
21. Odilov A. O'zbek xalqi cholg'ularida ijrochilik tarixi,- Toshkent. 1995 yil.
22. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti,- Toshkent. 1961 yil.
23. Qodirov M. O'zbek teatri an'analari,-Toshkent, 1976 yil.
24. Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi,- Toshkent: Namangan, 1994 yil.
25. Rasulov B M. O'zbekistonda musulmon maktab va madrasalar tarixidan- Andijon, 1996 yil.
26. Solixonov M. O'zbek teatri uchun materiallar,-Toshkent, 1935 yil.

27. Smirnov Y.T. Султани Кенисара и Садик. Лахтина 1889 год.
28. To'raikulov F. Isaxonova M. Qo'qon xonligida xattotlik san'ati tarixidan-Qo'qon asrlar silsilasida Respublika ilmiy anjuman materiallar,- Qo'qon 2004yil 14 may.
29. Ziyoyev h.z. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash,- Toshkent: Sharq. 1998 yil.
30. Ziyoyeva D.H.XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida an'anaviy xalq tomoshalari transformatsiyasi. Farg'ona vodiysi tarixiy tadqiqotlarda Respublika ilmiy anjuman materiallari. 2008 yil.
- 31 Velyaminov Zernov. Svediniya V. О Кокандском ханства. 1856 год.
32. Патунсов Н Н. Теварахи Шахрухие: Туркестанский ведомости - 1876 год.

3. Dissertatsiyalar.

- 1.Eshonova S N. XX asr boshlaridagi Qo'qon shoirlari (Nis ova Xoniy). Tarix.fan.nom.diss. Toshkent, 2006 yil.
2. Ilhomov Z.A. Aliqulu Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni. Tarix.fan.nom.diss. Toshkent. 2004 yil.
3. Isaboyeva G.S.XIX –asrda Qo'qon xonligida madaniy hayot. Tarix fan.nom.diss. Toshkent, 2010 yil.
4. Ishquvvatov V.T. XIX-asrning 2 yarmi tarixshunosligida Qo'qon –Rossiya diplomatik munosabat. Tarix fan.nom.diss. Toshkent, 2003 yil.
5. Mahmudov SH.Y.Qo'qon xonligining ma'muriy –boshqaruv tizimi.(1709-1876).Tarix fan.nom. diss. Toshkent, 2007 yil.
6. Masaliyeva O.M.XX-asr ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi. Tarix.fan.nom.diss. Toshkent, 1998 yil.
7. Tursunov.B.Y.Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin holati, boshqaruv, an'analari (XIX asrning 70 yillarigacha). Tarix.fan.nom.diss. Toshkent, 2006 yil.
- 8.Topildiyev N.R. Rossiya imperiyasi tajovuzi arafasi va bosib olinishi davrida Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Tarix.fan.nom.diss. Toshkent, 2009 yil.

9. Yo'ldoshev SH.T.Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning o'rtalari). Tarix.fan.nom.diss. Toshkent, 2009 yil.

10 Xudayqulov T.D.XIX-asrda Qo'qon xonligini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Tarix.fan.nom.diss.Toshkent, 2009 yil.

11. Vohidov SH.X.XIX-XX-asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi. Tarix.fan.dok.diss.Toshkent,1998 yil.

4.Manbalar.

1. Mirzo Olim ibn Mirza Rahim Toshkand. Ansob-us-salotin va tavorixi al-xavoqin. Toshkent: Fan.2001 yil.

2. Mirzo Olim Mahdum Xoji. Tarixi Turkiston. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2008 yil.

3. Mullo Holiboy Mambetov.Turkiston bosqini. Nashrga tayyorlovchi Ilhomov Z. Toshkent.2009 yil.

4. Muhammad Aziz Marg'iloniy.Tarixi Aziziy.Toshkent: Man'aviyat. 1999 yil.

5. Ibrat. Tarixi Farg'ona. Toshkent: Meros. 1991 yil.

ILOVALAR

Annotatsiya.

Bitiruv malakaviy ishida Qo'qon xonligining madaniy hayoti va tarixnavisligi masalalarining eng asosiy jihatlari yoritib berildi va mavzuning pedagogik texnologiyalar asosidagi o'qitish masalalari va dars ishlanmalari ko'rsatib berilgan. Uning natijalaridan o'rta maxsus ta'lim tizimida va bakalavr ta'lim yo'nalishida xonlik tarixiga oid darslarda foydalanish mumkin.

Резюме

Данной итоговой квалифицированной работе освещены вопросы историографии и культурной жизни Кокандского ханства. А также разработаны основные разработки обучения на основе педагогической технологии. Материалов данной работы можно использовать на уроках истории в среднеспециальном образовании, а также в обучении исторической специальности.

The Summary

Given hiccupped skilled work is illuminated questions to historiographies and cultural life Kokands khanate. As well as main developments education is designed on base of pedagogical technology. The Material given work possible to use on

lesson of the histories in fair special formation, as well as in learning the history profession.

Glossariy.

1	Qo'qon xonligi	Коканское ханства	Kokanskoe khanate
2	Iqtisodiy hayot	Экономическая жизнь	Economic life
3	Siyosiy hayot	Политическая жизнь	Political life
4	Hukmdor	правитель	ruler
5	Madaniy hayot	Культура жизнь	Cultural life
6	Madaniyat	Культура	Culture
7	Madrasa	Медресе	Madrasah
8	Masjid	Мечеть	Mosque
9	Maktab	Школа	School
10	Saroy	Дворец	Castle
11	Maqbara	Мавзолей	Mausoleum
12	Minora	Башня	Tower
13	San'at	Искусство	Art
14	Musiqqa	Музыка	Music
15	Bastakor	композитор	composer
16	Masxarabozlik	шутник	jokester
17	Qo'g'irchoq teatri	Кукольный театр	Puppet theatre
18	Qiziqchilik	скоморох, шут, клоун	clown, buffoon, clown
19	Teatr tamoshasi	Spektakl	Spektakl
20	Musiqiy tamosha	Konsert	Konsert
21	Xajv	Сатира	Satire
22	Hunarmandchilik	Ремесло	Craft
23	Xattotlik	каллиграфия	calligraphy

24	Musavvir	художник	artist
25	To'quvchi	ткачиха	weaver
26	Naqqoshlik	резчик по дереву	carver on tree
27	Oymakor	резной	carved
28	Kulol	Гончар	Potter
29	Kandakorlik	чеканщик и гравёр по металлу	and engraver on metal
30	Zargar	ювелир	jeweller
31	To'qimachilik	ткачество	textile
32	Miskarlik	Профессия или ремесло медных	Profession of a copper smish
33	Duradgorlik	плотник	carpenter
34	Maorif	Просвещения	Enlightenments
35	Mudarris	Руководитель учебной заведения (медресе)	Leader educational institution
36	Shogird	ученик	pupil
37	She'r	Стихи	Poetry
38	G'azal	Газел	Gazal
39	Doston	Поэма	Poem
40	Til	Язык	Language
41	Adabiyot	Литература	Literature
42	Tarixnavislik	Историография	Historiography
43	Elchi	Посол	Ambassador
44	Mansab	Должность	Job title
45	Tavsiyalar	Рекомендации	Recommendations
46	Metodik tavsiyalar	Методические рекомендации	To Methodical reccomendations
47	Metodik ishlanmalar	Методические	Methodical
48	Uslub	Метод	Method

49	Texnologiya	Технология	Technology
50	Pedagogik texnologiyalar	Педагогические технологии	Pedagogical technologies
51	Kollej	Колледж	College

Xonlikda barpo etilgan me'moriy obidalar

Mavlono Lutfiy majmuasi (XX-asr boshi). Namangan.

Norbo'tabiy madrasasi (XVIII-asr). Qo'qon.

Ota Valixon to'ra masjidi (XX-asr boshi). Namangan.

Otaqo'zi madrasasi (XX-asr boshi). Andijon.

Pansod masjidi (XX-asr). Shahrixon.

Said Ahmadxo'ja madrasasi (XIX-asr oxiri). Marg'ilon.

Sirli masjid (XIX-asr boshi). Namangan.

Xayrobod eshon maqbarasi (XVIII-asr). Toshkent.

Xalfa Tillo majmuasi (XX-asr boshi). Qo'qon.

Xudoyarxon saroyi (XIX-asr 2 yarmi). Qo'qon.

Xo'ja Alambardor madrasasi (XIX-asr). Toshkent.

Xo'ja Amin qabri (XVIII-asr). Namangan.

Xo'ja Bahriddin maqbarasi (XIX-asr). Toshkent.

Xo'ja Mag'iz maqbarasi (XVIII-asr 1 yarmi). Marg'ilon.

Chadoq masjidi (XVIII-asr). Namangan.

Cho'pon ota masjid maqbarasi (XVIII-XX-asrlar). Toshkent.

Shayxontohur majmuasi (XV-XIX-asrlar). Toshkent.

Qo'qon jome masjidi (1809-1822-yillar). Qo'qon.

G'ishtli masjid (XX-asr boshi). Qo'qon.

G'oyibnazar madrasasi (XIX-asr). Namangan.

Hazrati Imom majmuasi (XVI-XX-asrlar). Toshkent.

Qo'qon tarixchilari tomonidan yaratilgan ayrim asarlar namunalari

Abdulloh Hatifiy- "Temurnoma".

Muhammad Arzoni - "Muftarrix ul-qulub».

"Tarixi Sayid Roqim".

"Tarixi Jahongiriy".

"Risoi Sayram".

"Tarixi Farishta".

"Tarixi Imom Nafsiy".

«Miftoh ut-tavorix» («Tarixlar kaliti»).

Mir'ot-ul-satib o» («G'alabalar oynasi»).

«Matla' ul-ulum» («Ilmlarning boshlanishi»).

«Ajoyib ul-buldon» («Ajoyib mamlakatlar»).

«Tarixi aqolim sab'o» («G'aroyib to'plam»).

«Qutadg'u bilik».

«Devoni lug'at at-turk».

«Mulhakoti-surox» («Erkin ilova»).

**Qo‘qon xonligi me‘morchiligi va
xalq amaliy san‘ati namunalari**

